

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida
UDK 811.512.133(092)

ZAYNIDDINOVA ZULAYHO NEMATXONOVNA

FRAZEOLOGIZMLARNING GENDER
LINGVISTIKASIDAGI O‘RNI

5A120102 - Lingvistika (o‘zbek tili)

Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:
M.Sobirova,
Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Namangan – 2015

MUNDARIJA

KIRISH.....	4-8
-------------	-----

BIRINCHI BOB. GENDER LINGVISTIKASINING O'RGANILISHI

1.1. Gender tilshunosligining o'rganilish muammosi.....	8-13
1.2. O'zbek tilida genderning ifodalanishi va o'ziga xos jihatlari.....	14-23
1.3. Gender tilshunosligining O'zbekistondagi tadqiqi.....	24-31
Bob bo'yicha xulosalar.....	32-33

IKKINCHI BOB. FRAZEOLOGIZMLARNING GENDER TADQIQI

MUAMMOLARI

2.1. Frazelogizmlarning umumiy tasnifi.....	34-43
2.2. Frazelogizmlarning uslubiy xususiyatlari va iboralarning gender tadqiqi.....	44-54
Bob bo'yicha xulosalar.....	55-56

UCHINCHI BOB. O'ZBEK FRAZEOLOGIZMLARINING GENDER XUSUSIYATLARI

3.1. Frazelogizmlarda gender lingvistikasiga oid jihatlarning o'ziga xosligi (M.Yusuf ijodi misolida).....	57-60
3.2. Tashqi ko'rinish bilan bog'liq gender stereotiplari aks etgan iboralar.....	61-69
3.3. Erkaklar va ayollar nutqida alohida qo'llanuvchi frazeologizmlar tahlili.....	70-75
Bob bo'yicha xulosalar.....	76-76

IV. UMUMIY XULOSA.....	77-78
------------------------	-------

V. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	79-81
--	-------

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda barcha fan tarmoqlari kabi tilshunoslik ham jadal, jahon tilshunosligi yutuqlariga hamohang ravishda rivojlanib bormoqda. Bunga mustaqilligimiz, o'zligimizni anglashimiz, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar asosiy zamin yaratmoqda. Ayniqsa, tilshunoslikda yangi yo'nalish va tarmoqlarning yuzaga kelayotgani, pragmalingvistika, lingvopoetika, etnolingvistika, sotsiolingvistika, antropolingvistika kabi sohalarning keng ko'lmda taraqqiy etayotgani fikrimiz dalilidir. Ana shunday sohalardan biri – gender lingvistikasiga oid tadqiqotlar ham bugungi kundagi dolzarb masalalardan bo'lib kelmoqda.

Muloqot jarayonining barcha qirralari-so'z tanlash, gap qurilishi, fonetik ekspressiya, noverbal vositalarning ishlatilishi gender-tildan foydalanishda jinsga xos belgilarni o'rganuvchi tadqiqotlar uchun obyekt bo'la oladi. Gender tadqiqotlar jinslararo biologik emas, balki ijtimoiy farqlarga alohida e'tibor qaratgan bo'lib, bunda xotin-qizlarning ijtimoiy, intellektual shaxsiy imkoniyatlarini to'liq namoyon etishi muhim jarayon hisoblanadi. Shu bois mamlakatimizda bu masalaga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimizning bir qator Farmon va qarorlari asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qabul qilgan qarorlari bu borada o'ziga xos tarixiy voqea bo'lmoqda. Xotin-qizlarning oilada, davlat va jamiyat sohasida faolligini oshirishga qaratilgan Farmon va qarorlarining ijrosi ko'p jihatdan ayollarning ongi, tafakkuri, intellektual salohiyati darajasiga bog'liq. Ularning ilm-fan sirlarini puxta egallashlari, shu tariqa o'z qobiliyatlari va imkoniyatlarini jamiyat taraqqiyoti uchun yo'naltirishlari xalq, millat, mamlakat kelajagi yo'lida ijtimoiy faol bo'lish garovidir. Bugun jamiyatning deyarli hech bir muammosini ayollar ishtirokisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Prezidentimiz Islom Karimov mustaqil mamlakatimiz xotin-qizlari haqida so'z yuritib, "Ayollarni qanchalik ulug'lasak, hayotimizning chirog'i, umrimizning guli deb e'zozlasak, demakki, oilamizni, Vatanimizni e'zozlagan bo'lamiz", - deya yuksak baho bergan edi.

Ma'lumki, hozirgi kunda jahondagi dolzarb muammolardan biri - ta'limning

barcha bosqichlarda 2015 - yilgacha gender tengsizlikka barham berish hisoblanadi. Mazkur masala Prezidentimiz I.A.Karimovning 2010 - yil 20 - sentabrda BMTning ming yillik rivojlanish dasturiga bag'ishlangan ma'ruzasida ham o'z aksini topgan edi. Hozirgi vaqtga kelib dunyo bolalarining 121 millioni, ular orasida qizlar ko'pchilikni tashkil qiladi, maktabga bormaydi, ya'ni ta'lim olish huquqidan mahrumdirlar. O'zbekistonda esa aholining savodxonlik darajasi yuqori bo'lib, u 99,6 foiz ni tashkil etadi hamda O'zbekiston uchun aholi savodxonligi borasida gender tafovuti masalasi o'z yechimini topgan masala hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan O'zbekiston Respublikasi mamlakatda erishilgan savodxonlik darajasi bilan tom ma'noda faxrlansa arziydi. O'zbekistondagi olim ayollar mamlakatdagi barcha sohadagi islohotlarni amalga oshirishda o'zlarining ijtimoiy faolligini oshirmoqda. Ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bormoqda. Yangiliklarni, natijalarni amaliy hayotga keng tatbiq etmoqda. Yosh, iste'dodli va iqtidorli xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlanmoqda. O'zbek olimalarining xorijlik hamkasblari bilan ijodiy hamkorlik o'rnatishlariga ko'maklashilmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub ijobiy islohotlar jarayonida olim ayollarning roli yuksak darajada bo'lmoqda. Bu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ta'kidlanganidek, "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqli bo'lib (46-modda), har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi" (42-modda), deya ta'kidlanishi masala mohiyatiga butkul oydinlik kiritadi. Mustaqillikdan oldingi yillarda erkaklar va ayollar nutqida ko'plab so'zlarni qo'llashdagi farqlar yaqqol ko'zga tashlangan. Bu esa o'z o'rnida genderni o'rganishga bo'lgan qiziqishni oshishiga sabab bo'lmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. XX asrning 90-yillariga kelib dunyo tilshunosligida gender tilshunosligi borasida izlanishlar olib borish qizg'in tus oldi. Bu sohadagi tadqiqotlar o'zbek tilshunosligida M.Qurbonova,

S.Boymirzayeva, N.Bekmuxamedova va B.Yo'ldoshev kabi ko'plab mutaxassislar tomonidan amalga oshirilmoqda.

Tadqiqotning maqsadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi frazeologizmlarning gender lingvistikasida tutgan o'рни va ahamiyatini yoritib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Tadqiqot oldiga qo'yilgan asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

1. Gender lingvistikasining o'rganilish tarixini yoritish.
2. O'zbek tilida genderning ifodalanishi va o'ziga xos jihatlarini o'rganish.
3. Gender tilshunosligining O'zbekistondagi tadqiqi masalasini tahlil qilish.
4. Frazeologizmlarning gender tadqiqi masalasini tahlil qilish.
5. Frazeologizmlarning umumiy tasnifini berish.
6. Frazeologizmlarning uslubiy xususiyatlari va iboralarning gender tadqiqini amalga oshirish.
7. Tashqi ko'rinish bilan bog'liq gender stereotiplari aks etgan iboralarni tahlil qilish.
8. Erkaklar va ayollar nutqida alohida qo'llanuvchi frazeologizmlar tahlilini berish.

Tadqiqotning obyekti va materiallari. Tadqiqotning obyekti o'zbek tili lug'at tarkibidagi frazeologizmlar bo'lib, bu lug'aviy birliklarning gender xususiyatlarini tahlil qilish ishning predmeti sanaladi.

Tadqiqotning nazariy asosi va metodlari. Magistrlik dissertatsiyasini yozishda jahon va o'zbek tilshunosligidagi eng ilg'or fikrlarga, gender lingvistikasiga oid nazariy tadqiqotlarga tayanildi hamda ishni bajarish jarayonida umumlashtirish, alohidalash, leksik-semantik tahlil metodlariga asoslanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi frazeologizmlarning tilshunoslikda hali gender nuqtayi nazaridan o'rganilmaganligi bilan xarakterlanadi.

Ishning ilmiy va amaliy ahamiyati. Ish materiallaridan oliy o'quv yurtlarining magistratura yo'nalishida sotsiologiya, etnologiya, paralingvika kabi sohalarni o'qitishda, frazeologik lug'atlar tuzishda foydalanish mumkin.

Ishning sinovdan o'tishi. Dissertatsiya Namangan davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasida yig'ilishi (2015-yil 21-aprel) da muhokama qilinib, himoyaga tavsiya etilgan.

Natijalarning e'lon qilinganligi. Tadqiqot bo'yicha Nizomiy nomidagi Toshkent davlat universitetining "Mazluma Asqarova va o'zbek tilshunosligi masalalari" (Toshkent, 2014), Namangan davlat universitetining "Madaniyatlararo va ilmiy-taxnik aloqalarda tarjimaning o'rni hamda roli" mavzusida o'tkazilgan Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari maqolalar to'plami (Namangan, 2014), "Hozirgi o'zbek she'riyati va zamonaviy o'qitish metodikasi" (Namangan, 2014), "Salohiyat - mezon" (Namangan, 2015) nomli ilmiy to'plamlarida 4 ta maqola e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi. Dissertatsiya hajman 81 bet bo'lib, kirish, "Gender lingvistikasini o'rganilishi", "Frazeologizmlarning gender tadqiqi muammolari", "O'zbek frazeologizmlarining gender xususiyatlari" kabi uch asosiy bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. GENDER LINGVISTIKASINING O'RGANILISHI

1.1. Gender tilshunosligining o'rganilish muammosi

Gender hodisalarining nutqiy muloqot va lisoniy faoliyatda voqelanish jarayoni boshqacha mazmun va mohiyatga ega bo'lgan lisoniy hodisalar bilan mushtarakdir. Ma'lumki, so'zlovchi, qaysi jins yoki toifa vakili bo'lishidan qat'iy nazar, hamma uchun yagona bo'lgan lisoniy tizimdan foydalanadi. Ammo, ta'kidlash o'rinliki, har bir shaxsning nutqiy yoki lisoniy qobiliyati va imkoniyat darajasi turlicha bo'lishi aniq.

“Gender” atamasi 1968-yilda amerikalik olim Stoller tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Ilmiy adabiyotlarda gender tushunchasining bir necha talqini mavjud. Gender – inglizcha “gender” – “zot” so'zidan olingan bo'lib, jins tushunchasini fiziologik voqelik ustqurmasi bo'lgan ijtimoiy qurilma sifatida belgilaydi.¹ Shu bois erkaklar va ayollar o'rtasidagi biologik tabiiy farqlar bilan erkaklar va ayollar xatti-harakatini, ijtimoiy va madaniy tavsiflarini aniqroq farqlash uchun gender atamasi qabul qilingan. Erkak va ayollarga tegishli ijtimoiy bog'liqlik, xulq-atvor va kutilgan natijalarni ifodalaydi. “Gender feministik nazariyaning davomi sifatida vujudga kelgan yondashuvlar, feminizm (fransuzcha “feministe”, lotincha “femina” - ayol) xotin-qizlarni kamsitishlardan xalos etishni targ'ib etuvchi, ular mavqeyini jamiyatdagi ijtimoiy voqealar hosilasi sifatida o'rganuvchi oqimdir.” Demak, inson jinsda nafaqat fiziologik jihatdan farqlanadi, balki uning atrofida bilan muomalasi, nutqi, va hatto, dunyoqarashida ham jinsdagi o'ziga xos, farqli yoki mushtarak jihatlar namoyon bo'ladi. Sofya Babayan bu haqda: “Gender ijtimoiy tushuncha. Ayol yoki erkakning benuqson timsoli berilgan, xronologik va geografik muhit rang-barangligi, milliy an'analari,

¹ Э.Гидденс Социология. – Т. “Шарк”. 2002., 185-бет.

etnopsixologiyasi, dini, tarixi va milliy mentaliteti va boshqalarda ifodalanadi” – deb yozadi.

Gender – umumiy mazmuniga ko’ra erkak va ayollar o’rtasidagi farq. Ikkala jins vakillari nutqiy hulqini jahon tilshunosligida nemis olimi Joul Oates o’zining “ayol, erkak va til” asarida ham ayol va erkaklarning nutqidagi o’zaro farqlanuvchi jihatlarni ochib beradi. U ko’proq ayol va erkaklardagi salbiy va ijobiy konatassiyalarni olib, o’zaro qiyoslab gender nuqtai nazardan taxmin qiladi.

Gender – tabiatan belgilanmagan, ijtimoiy hodisalar ato etgan xususiyatlar yig’indisidir. Gender – jinsning madaniy niqobi, bizning o’z ijtimoiy-madaniy tasavvurlarimiz doirasidagi jins haqidagi qarashlarimizdir. Buning ustiga jins, faqat gender demakdir, ya’ni uning ijtimoiylashtirilishi natijasida jinsni tashkil etgan narsadir. Jins insonga tegishli emas, balki inson jinsga oiddir, u esa hokimiyat va tilga ega.

Hozirgi kundagi gender muammosiga oid tadqiqotlarni V.A.Kirilina² ikki yo’nalishga ajratadi:

1. Gumanitar fanlar doirasida gender muammosi. Bunda sotsiologiya, psixologiyada o’rganilgan tadqiqotlar tilshunoslik uchun asos bo’ladi. Genderning kategoriya sifatidagi va antologik maqomi o’rganiladi.

a) gender tahlilining umumilmiy prinsiplari.

- gender – madaniyat va jamiyat taraqqiyotining hosilasi bo’lib qiyosiy xarakterga ega; konvensional mohiyat sifatida tan olinadi.

- gender boshqa sotsiomadaniy konstruktlar kabi o’zgaruvchandir.

- gender umumilmiy kategoriyadir; har bir fan doirasida genderning o’ziga xosligini va qaysi metodlar yordamida o’rganilishini e’tiborga olish kerak.

b) gender tahlilining lingvistik prinsiplari.

² Қаранг: Кирилина А.В. Исследование гендера в лингвистических научных дисциплинах// Гендерные образование в системе высшей и средней школы: состояние и перспективы: Материалы международной научной конференции, Иваново, 24-25 июня 2003 г. – Иваново: Иван.гост.ун-т, 2003. –с.с.132-138.

- gender kommunikativ muloqotning muhim mezonini sanaladi.
- genderning madaniy simvolik tabiati gender bilan bog'liq o'xshatishlarning yuzaga kelishiga olib keladi.
- til va kommunikatsiyalarning gender aspektlarini o'rganish uchun lingvistik metodlar qo'llaniladi. Umuman tilshunoslikda qo'llanilayotgan (sotsiolingvistik, psixolingvistik, lingvomadaniyatshunoslik va boshqa) metodlar foydalaniladi.

2. Lingvistik genderologiya yoki gender lingvistikasi muammosi. Gender lingvistikasi – ilmiy yo'nalishdagi gender tadqiqotlari tarkibiga kirib, lingvistik tushunchalar yordamida genderni o'rganadi.

Bundan tashqari lingvistik genderologiya har qanday yangi yo'nalish kabi o'ziga xos qirralarga, ya'ni tushunchalar apparati kategoriyalari aniq shakllanmagan yangi yo'nalishdir. Bu yangi yo'nalish o'ziga xos tadqiqot usullari va metodlarining shakllanish jarayonidadir. Shu bilan birga tilshunoslik ilmiy maydonidagi olimlar lingvistik tadqiqotlar metodlaridan hamda, sotsiolingvistika, psixolingvistika va boshqa gumanitar fanlar (lingvistika, tarix, adabiyotshunoslik va boshq.) metodlaridan foydalanishyapti.

Gender lingvistikasining rivojlanishi zamonaviy falsafaning rivojlanishi va gumanitar fanlarning ilmiy yo'nalishlarini almashinishi bilan bog'liq holda XX asrning oxirgi 10 yilliklariga to'g'ri keladi. Gender lingvistikasi umumiy holatda ikki guruh savollarni o'rganadi:

1. Genderning tilda yuzaga chiqishi: leksika, sintaksis, rod kategoriyasi va qator bo'limlarda namoyon bo'ladi. Bunday yondashuvning maqsadi tilda turli jinsdagi odamlarning tilini ifodalanishi, erkak va ayollarga qanday baho berilishi hamda qaysi semantik oblastlarda ularning ko'proq tarqalganligi, buning asosida qanday lingvistik mexanizm mavjudligi bilan ifodalanadi.

2. Genderning nutqda yuzaga chiqishi: gender qanday vositalar va qanday kontekstlar yordamida ifodalanayotganligi, bu protsessga ijtimoiy faktorlar va kommunikativ vositalar qanday ta'sir ko'rsatayotganligi o'rganiladi. Hozirgi

vaqtgacha bu sohada ijtimoiy determinizm nazariyasi va biodeterminizm nazariyalari raqobat qilib kelmoqda.

G'arb tillaridagi gender omili keng o'rganilgan va o'rganib kelinmoqda. MDH xalqlari tillari misolida ham keyingi yillari muayyan materiallar to'plandi. Bu borada rus tilshunoslarining tadqiqotlari ko'p. K. Kirilina, A. Popov, M. Kolesnikova, I. Zikova, O.Vaskova kabilar gender belgili til birliklari lug'atini tuzish, turli tillarda gender munosabatlarining aks etishi, tijorat va boshqa maqsadlarda gender leksikadan foydalanish borasida tadqiqotlar olib borganlar. Gender tadqiqotlarda qo'lga kiritilgan natijalar hozirgi davrda o'ta dolzarb madaniyatlararo muloqotlarda yuzaga keluvchi muammolarni hal qilishda qo'l kelishi aniq.

Hozirgi kunda gender lingvistikasida genderning turli jihatlari o'rganilmoqda. Ularning ayrimlarini alohida ta'kidlab o'tishni lozim topdik:

- gender va intonatsiya;
- gender va urg'u;
- gender va geminatsiya;
- gender va leksik qatlam;
- gender va ma'no ko'chishi;
- gender va morfologik ko'rsatkichlar;
- gender va sintaktik vositalar;
- gender va frazeologizmlar;
- gender va diskurs;
- gender va pragmatika;
- gender va olamning lisoniy manzarasi;
- gender va virtual muloqot;
- gender va paralingvistik vositalar va boshqalar.

Gender ko'p aspektli tushuncha hisoblanadi. Shu bois gender bilan bog'liq muammolar ko'pgina sohalarning tekshirish ob'yekti hisoblanadi. Xususan,

sotsiologiya, psixologiya, kognitologiya, lingvistika kabi fanlarda gender turli aspektlarda tadqiq etilmoqda.

Til qurilishida jinsiy farqlilik uning kaliti va mexanizmini beradi. Gender tilni tahlil qilishda bir qancha yo'nalishlarga murojaat qiladi:

a) sotsiolingvistika – tilning ijtimoiy mohiyati, ijtimoiy vazifasi, tilga sotsial omillarning ta'siri, til taraqqiyotida til siyosatining roli kabi qator masalalarni o'rganadi³;

b) psixolingvistika – nutqning vujudga kelish mexanizmini, bolalar nutqining shakllanishi jarayonini, nutqning axborot tashish funksiyasi kabi masalalarni o'rganadi⁴;

v) etnolingvistika – tilning shu til egasi bo'lgan etnos madaniyatiga bo'lgan munosabatini, tilning funksiyalanish va rivojlanish jarayonida etnomadaniyat, etnopsixologik omillar o'rtasidagi aloqani o'rganadi⁵;

g) neyrolingvistika – nutqiy faoliyat bosh miyaning mahsuli ekanligi, miya kasallanishining nutqiy faoliyatga ta'siri kabi masalalarni o'rganadi⁶;

d) mentalingvistika – ob'ektiv olam qismlari va uning til tasavvurlari o'rtasidagi munosabat o'rganiladi⁷.

Demak, yuqorida nomi tilga olingan fanlar chorrahasida gender lingvistikasi sohasidagi fanlar paydo bo'ladi. Gender lingvistikasi o'zbek tilshunosligida endi tetapoya qilib kelayotgan fan sohalaridan biri bo'lib, lingvistik tushunchalar yordamida genderni o'rganadi.

Gender lingvistikasi sohasidagi ilmiy tadqiqot ishlarida kattalar nutqi, o'smirlar nutqi, bolalar nutqiga e'tibor qaratilgani holda, ayol va erkaklar nutqi, o'g'il bolalar va qiz bolalar nutqi, badiiy asarlardagi gender munosabat borasidagi farqlanishlar; ijtimoiy rollar, faoliyat shakllarining bo'linishi, xatti-harakat va individlarning psixologik tavsiflaridagi farqlar nazarda tutiladi.

³ А.Нурмонов, Б.Йўлдошев. Тилшунослик ва табиий фанлар. – Т. “Шарқ”, 2001, 70-бет.

⁴ Ўша асар. 68-бет.

⁵ А.Нурмонов, Ш.Искандарова. Тилшунослик назарияси. – Т., “Фан”, 2008, 158-бет.

⁶ Ўша асар. 165-бет.

⁷ Ўша асар. 164-бет.

Shiddat bilan yangilanayotgan ilm-fan kundan kunga yangi izlanishlar qilishga chorlaydi. Shu jihatdan gender lingvistikasini o'rganish va chuqurroq tahlil qilish hozirgi davr tilshunosligining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Xulosa qiladigan bo'lsak, jahon tilshunoslarining e'tiborini tortgan gendrologiya o'zbek lingvistikasida ham alohida dolzarblik kasb etadi.

1.2 O'zbek tilida genderning ifodalanishi va o'ziga xos jihatlari

O'zbek tilshunosligida genderga oid ma'lumotlar turli tadqiqotlarda lavha xarakterida uchrab turadi. Mustaqillik sharofati bilan keyingi yillarda bu masalaga e'tibor kuchayib borayotganini ko'rish mumkin. O'zbek xalqining o'ziga xos mentaliteti, tarixiy taraqqiyoti davrida erkaklar va ayollar munosabatining shakllanuviga doir bosib o'tilgan davriy bosqichlarning hilma-xilligi, islom dini aqidalarining o'ziga xos ta'siri tilda genderga oid juda qiziqarli materiallar to'planishiga, ayollar va erkaklarning o'zaro izchil farqlanuvchi nutq odatining shakllanishiga olib keldi. Bunday o'ziga xoslik boshqa millatlar, xususan, nutq odob taraqqiyotining o'zbek tilidan ancha farq qiluvchi bosqichini bosib o'tgan xalqlar odobi bilan qiyosda yaqqol namoyon bo'ladi. Mustaqillikdan oldingi yillarda erkaklar va ayollar nutqida ko'plab so'zlar, xususan, fe'lga oid so'zlarni qo'llashdagi farqlar yaqqol ko'zga tashlangan. Masalan, yelkasi yer ko'rmoq, yerparchin qilmoq, chil bermoq, talabgor bo'lmoq, talabgor qidirmoq, ko'z ostiga olmoq, ko'ngil bermoq, ko'ngil olib, ko'ngil bermoq kabi harakat fe'llari guruhiga kiruvchi leksema va frazemalar nutqda faqat erkak jinsi uchun xoslangan. Ayollarga berilayotgan imkoniyatlar natijasida yuqorida sanab o'tilgan leksema va frazemalarning ham ayollar nutqida, xususan, sport bilan faol tarzda shug'ullanayotgan qizlar nutqida keng tarzda qo'llanilayotganini misolga keltirishimiz mumkin.

Ayollar va erkaklar nutqida qo'llaniluvchi leksemalarni qiyoslash ham alohida ahamiyat kashf etadi. Tilshunoslarning kuzatishlaricha, tildagi yangilanish jarayonlari ayollarga nisbatan erkaklar tomonidan tez qabul qilinib, ilmiy va kasb-hunarga oid yangi leksemalar erkaklar nutqida ko'proq va faolroq qo'llanilar ekan.

Shuningdek, ayollar kundalik muloqotda neologizmlardan unumli foydalangan holda, rasmiy muloqotda ulardan qochishga harakat qilar ekan. Shuningdek, baho bildiruvchi sifatlarining qo'llanishiga ko'ra ham erkak va ayollar nutqi farqlanar ekan. Bunday birliklarning faol qo'llanilishi ayollar

nutqining xarakterli xususiyatlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Ayol kishi tabiatan nozik yaratilganligi sababli, suhbat jarayonida ham jozibador va bo'yoqdor leksemalarni, shaxsiy munosabat ifodalovchi so'zlarni, ayniqsa, ijobiylik semasiga ega bo'lgan leksemalarni ko'p qo'llaydi. Odatda suhbat predmeti bir oz bo'rttirilgan holda ko'rsatiladi. So'zlashuv jarayonida ayollarda emotsionallik kuchliroq bo'ladi: hayratlanish, sevinish, hafa bo'lish, qo'rqish kabi ruhiy-fiziologik holatlar yorqinroq aks etadi.

Ayollar va erkaklar nutqining o'ziga xosligi ular nutqida qo'llanilgan jummalarni taqqoslaganda ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunonchi, ayollar suhbatdoshining fikriga qo'shilish yoki qo'shilmasligini hamda shaxsiy munosabatlarini ifodalar ekan, suhbatdoshini hafa qilib qo'ymaslik uchun ehtiyot bo'lib jumla qurishadi, ya'ni o'z e'tirozlarini, noroziliklarini ifodalash uchun tilning sintaktik qurilishida mavjud bo'lgan neytralroq konstruksiyalardan, qoliplardan foydalanishadi. Jumladan, keyinroq borsak bo'lmaydimi, keyinroq borsak bo'lar ekan, keyinroq boraylik, keyinroq bora qolaylik, keyinroq bora qolaylik, maylimi?, keyinroq borsak nima deysiz? va hakazo. Erkaklar esa bu holatda keyinroq boramiz, keyinroq borsak bo'ladi, keyinroq ham borsak bo'ladi kabi ifoda shakllaridan foydalanishadi.

Ayollar va erkaklar nutqining o'ziga xosligini belgilovchi asosiy omillardan biri ayollarning erkaklarga qaraganda ko'proq nutqiy muloqotda xushmuomala bo'lishga, odob saqlashga, suhbatdoshiga nisbatan hurmat ko'rsatishga harakat qilishlaridir.

Erkak lingvistikasi va ayollar lingvistikasida ayollar va erkaklarga xos bo'lgan lisoniy xususiyatlar nafaqat og'zaki nutqda balki yozma nutq jumladan, badiiy adabiyotimizda ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Ko'plab ijodkorlar o'zlari bilmagan holda genderga xos farqlarni o'z ijod namunalariida go'zal tarzda talqin etganlar. Buni adabiyotimizning nasriy, nazmiy hamda dramatik turlarida kuzatish mumkin. Misol uchun, xalqimizning sevimli shoiri Muhammad Yusuf ijodida ham bu lisoniy xususiyatlar yaqqol namoyon bo'ladi. Ayolni madh etuvchi

“Senda to’lin yuzlar bor”, “Ey, ko’zlari jayron, kiprigi nayza!”, “Lola yanoq, hilol yuzlar”, “Tillabarmoq qizlar”, “Kuydirgi yor, sohibjamol”, “Ey gulbadan, ey kiyik nigoh”, “O! Yuzi hilolim, sarviqomatim” kabi leksik vositalar orqali ayol kontseptini ifodalaydi. Bu kontsept goh undalmalarda, goh tasviriy ifodalarda qo’llaniladi. Muhammad Yusufning she’rlarida she’riyatni, qizg’aldoq, rayhon, yulduz, kapalak, majnuntol, yalpiz, lola kabilarni ayol obrazida kelgani kuzatiladi: *“She’riyat! Ey bevafo sanam!”*, *“Qizg’aldog’im, qirdan bo’lak koshonang yo’q, Kokil yoysang, yerdan bo’lak toshonang yo’q”*, *“Jimir-jimir qilgan yulduzning bari – Hammasi singlimga o’xshaydi!”*, *Tug’ishgan singlimdek sog’inib kelib, Kapalak kaftimga qo’nadi bir kun..”*, *“ Mening onam -majnuntol”, “Mening opam – yalpizdir, Singlim – lola qon axir”* va boshqalar.

Shoir xayol, oqterak, tog’, burgut kabilarni erkak obrazida chizadi: *“Xayol qanday yaxshi, Akangga o’xshar”*, *“Mening otam oqterak.”*, *“Mening akam - Ulug’ tog’, Mening ukam - burgutdir”*.

Ma’lumki, badiiy asarda muallifning vazifasi – qahramonlarning xulq-atvori, tabiati, jinsi, ichki ma’naviy olami va kasb-korini ko’rsatib bera olishdir. Chunki shoir rassom yo qandaydir boshqa san’atkor singari o’xshatuvchidir – deydi Aristotel – bunday taqdirda u albatta uch narsadan qaysi birinidir tasvirlashi zarur. U narsalarni qanday bo’lsa shunday yoki ular haqida odamlar aytganiday yohud o’ylaganiday, yoki ular qanday bo’lishi kerak bo’lsa, shunday tasvirlashi lozim. Demak, tilda genderni belgilashda vaziyatlarga to’la mos kelishi, vaziyat ehtiyojidan kelib chiqqan holda o’zgarishi va transformatsiyalanishi kerak. Genderni yaratish vaziyatlarini shu tariqa boshqarishni ko’zda tutadiki, xatti-harakat genderga xos bo’lgan yoki qasddan genderga xos bo’lmagan ya’ni aniq matnga bog’liq deb ko’rib chiqiladi yoki ko’rib chiqilishi mumkin.

Gender tilshunosligida mana shu vazifa, ya’ni erkak va ayol lingvistikasida ayollar mikromaydoni va erkaklar mikromaydoni belgilanadi. Uning muammolaridan biri - ijodkorlar ijodida gender omilini ifodalovchi lisoniy xususiyatlarni atroflicha o’rganishdir. Natijada gender rolining ahamiyati e’tiborga

olinadi va badiiy matnning androtsentrik tendentsiyasi aniqlanadi. Ye.S.Gritsenko ta'kidlaganidek, "tilni tavsiflashda gender parametrlarini hisobga olish ham tilni, ham jamiyatni yaxshiroq tushunishga imkon beradi".⁸

Tilshunoslikda gender masalalarini o'rganishda nutqiy faoliyatning barcha ko'rinishlari: yozma va og'zaki matnlar tadqiqot ob'ekti bo'lib xizmat qilishi mumkin. Dunyo tilshunosligida bu masalalarga bag'ishlangan ishlar anchagina. Til va gender muammosi tadqiqida diskursga alohida ahamiyat berilishiga sabab aynan so'zlashuvda ayollik va erkaklik belgilari bilan shartlangan ko'plab hodisalar, jumladan, nutqning ayol yoki erkaklarga xos xususiyatlari voqelanadi. Shu jihatdan diskursning gender xususiyatlarini ochib berish juda qiziqarli ma'lumotlarni beradi.

"Diskurs" atamasi fransuz tilidan olingan bo'lib (discours), matnning og'zaki so'zlashuv shakli, dialog, bir-biriga ma'no jihatidan bog'langan mulohazalar yig'indisi, nutqiy asar ma'nolarini bildiradi. O'zbek tilida amalga oshirilgan tadqiqotlarda diskurs atamasi ko'proq og'zaki matn ma'nosini bildiradi. Har qanday talqinda ham diskurs matn tushunchasi bilan uzviy aloqador. Ta'kidlash joizki, tilshunoslikda diskurs va matn tushunchalarining o'zaro munosabati masalasi ilmiy munozaraga ham sabab bo'lgan. Shu o'rinda tilshunos Sh.Safarovning quyidagi fikrlari asoslidir: "Ma'quli, qiyoslanayotgan bu ikki hodisani "giperonim" – "giponim" munosabatida o'rganishdir. Diskurs inson ongli faoliyatining ma'lum bir turi, turkumi bo'lsa, matn uning bir ko'rinishidir. Diskurs kategoriyasining bu xildagi keng ma'noda, umumlashtiruvchi mazmunda talqin qilinishi muloqot tizimi, inson ongli faoliyati bilan qiziquvchi boshqa fan sohalari – falsafa, sotsiologiya, psixologiya, kibernetika kabilar uchun allaqachonlar e'tirof etilgan qoidadir".⁹

Muloqot jarayonida ayol va erkaklarga xoslikni aniqlash qiyin emas. Oddiygina suhbat jarayonida ham bu holat ayrim tafovutlar orqali e'tiborimizni

⁸ M.Pirmatova. Muhammad Yusuf ijodida genderni xos xususiyatlar// Muhammad Yusuf ijodining badiiy takomili ilmiy anjuman materiallari. Andijon, 2014, 144-145-betlar.

⁹ Сафаров Ш. Прагмалингвистика: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, - Тошкент, 2008. 226-227 бетлар.

tortishi ayni haqiqat. Agar diskursning ayrim gender xususiyatlarini kuzatadigan bo'lsak, quyidagilarga guvoh bo'lish mumkin.

Erkaklarda:

- Salomlashish jarayonining qisqaligi. Ayrim hollarda salomlashish jarayoni amalga oshmasdan to'g'ridan to'g'ri muddaoga o'tish. Oldindan rejalashtirilgan fikrlarning bayon etilishi, erishilgan natijalar eng ko'pi bilan 50 foizga bo'rttiriladi. Dalil va faktlar, misollarning ko'proq qo'llanilishi, sitatalar sifatida buyuk shaxslar, olim va faylasuflarning fikrlarini keltirish, aforizmlar, latifalar, maqollarning ko'proq ishlatilishi, sukut saqlash jarayonining uzunroq davom etishi, suhbat davomida uzun pauzalarining qo'llanilishi, suhbat jarayonida suhbatdoshning so'zi kamroq bo'linadi, odatda erkaklar suhbatdoshning fikrini oxirigacha eshitishadi. Aniq, bir ma'noli gapirish, siyosiy-iqtisodiy, professional mavzular haqida ko'proq suhbatlashish, suhbat jarayonida maqtanish predmeti sifatida odatda professional yutuqlar, intellektual bilimlar, yangi texnika va texnologiyalar bilan tanishganlik va boshqalar o'taydi. Gaplar va jummalarning qisqa va lo'ndaligi.

Ayollarda:

- Salomlashish va hol-ahvol so'rashish jarayonining nisbatan uzunligi. Suhbat davomida bir xil fikrlarning takroriy qo'llanilishi, erishilgan natijalar odatda 200 va undan ortiq foizga bo'rttirilishi mumkin. Emotsionallikni aniq namoyon etilishi, boshqa shaxslar tomonidan aytilgan gaplarning suhbatdoshga yetkazilishi, sitatalar sifatida o'ziga tanish bo'lgan insonlarning gaplarini keltirish, suhbat jarayonida sukutning deyarli vujudga kelmasligi, sukut vujudga kelgan taqdirda uning qisqaligi, suhbat davomida pauzalar deyarli qo'llanilmaydi, odatda ularning suhbatlari uzluksiz tovushlar yig'indisi kabi bo'ladi. Suhbatdoshning so'zi tez-tez bo'linadi. Suhbatdoshning so'zini bo'lish ko'pincha miyaga to'satdan kelgan fikrni bayon qilish uchun amalga oshiriladi. Majhul yoki ko'p ma'noli so'zlarning qo'llanilishi, Kiyim-kechaklar, kosmetik vositalar, oilaviy muammolar haqida ko'proq suhbatlashish, suhbat davomida maqtanish predmetini sifatida uy

jihozlari, avtomashinalar, taqinchoqlar, kosmetik vositalar va boshqa moddiy boyliklar o'taydi. Shuningdek, gaplar va jummalarning uzun tuzulishi.

Erkaklar o'rtasidagi o'zaro nutq siyosiy mavzular, dunyoda bo'layotgan yangiliklar, sport va mashinalar haqida kechadi. Shuningdek, nutqlarida ko'proq bosiqlik, vazminlik va ular ruhiyatida boshqaruvchilik aks etib turadi. Ayollar nutqida ko'proq nolish, xasrat qilish uy - ro'zg'or, oila kabi mavzular uchraydi. Ayollar o'z xursandchiligini bazan yuqori darajadagi emotsiya va turli noverbal hodisalar (qichqirib yuborish, qarsak chalish kabi holatlar. Bunday holatlar asosan, qizlarda uchraydi) orqali namoyon etsa, erkaklar o'z quvonchini bosiqlik bilan ifodalaydi. Ammo shaxsning salbiy hislati bo'lmish jahl qilish, g'azablanish ayollarga nisbatan erkaklarda kuchliroq nomoyon bo'ladi. Ayollar jahli chiqqanini sukut saqlash, jim turish bilan ifodalasa, erkaklar ko'pincha o'z g'azabini baqirish, so'kish va boshqa naverbal hodisalar orqali nomoyon etadi.

Ayollarda

Suhbatning asosiy jarayoni	Xissiy-emotsiyanallik darajasi
Nolish, xasrat qilish uy - ro'zg'or, oila kabi mavzular	Yuqori darajada, emotsiya va turli noverbal hodisalar ko'p qo'llaniladi

Erkaklarda

Suhbatning asosiy jarayoni	Xissiy-emotsiyanallik darajasi
Siyosiy mavzular, dunyoda bo'layotgan yangiliklar, sport va mashinalar haqida	Past darajada, bosiqlik, vazminlik va ular ruhiyatida boshqaruvchilik kuzatiladi

Ayollar va erkaklar nutqining o'ziga xos jihati qarg'ish va so'kishlarni yosh jihatdan taqqoslaganda ayollar nutqidagi qarg'ishlar 40 yoshdan oshgan ayollar o'rtasida ko'proq uchraydi. Albatta, erkaklar nutqiga bosiqlik, vazminlik, ayollar nutqiga esa noliq, xasrat qilish kabi holatlar mos deya keskin fikr bildirish nisbiydir. Shuningdek, bunday holatlarni farqlashda, yuqorida aytib o'tganimizdek, shaxsning ijtimoiy holatini ham inobatga olmoq zarur. Masalan, o'qimishli, ziyoli o'qituvchi ayolning suhbatini bilan oddiy uy bekasining nutqida farq bo'ladi. Gender tadqiqotlari lisoniy faoliyat subyektini ijtimoiy biologik maqomga ega bo'lgan shaxs sifatida ta'riflash maqsadini navzarda tutib, u sotsiologvistikaning ajralmas qismidir deya munosabat bildirish mumkin.

Sotsiologlarning fikricha, gender ijtimoiy nuqtai nazardan jamiyatning erkaklarga va ayollarga ijtimoiy bo'linishga tegishli hollarda qo'llanishi mumkin. Ijtimoiy omillar toifa, yosh, irq va kelib chiqishi alohida gender mazmunini ifodasi va tajribasini tashkil etadi. Atamashunoslik nuqtaiy nazaridan gender tushunchasi feminizmning nazariy rivojlanishi jarayonida, bevosita gender tadqiqotlari jarayonida shakllandi. Gender tadqiqotlari dunyodagi eng yosh va istiqbolli ilmiy yo'nalishlardan biridir. U huquq, oilaviy munosabatlar, sog'liqni saqlash, adabiyot, madaniyat va hokazo sohalarni qamrab oladi.

Ayollar nutqi erkaklar nutqidan fonetik, leksik va grammatik jihatdan ancha farq qiladi. Ammo bundan maxsus ayollar tili yoki erkaklar tili mavjud degan xulosa chiqarib bo'lmaydi. Kuzatishlardan aniqlanishicha, erkaklar va ayollar nutqida biologik va psixologik jihatdan qarama-qarshilik yaqqol ko'zga tashlanadi. Biolog olimlarning ta'kidlashicha qizlarning tili o'g'il bolalarga nisbatan ancha tez chiqar ekan. Ular dastlab turli tovushlarni talaffuz etib, shu asosda so'zlarni, jummalarni talaffuz qila boshlar, o'g'il bolalar esa butun-butun tayyor jumlar talaffuz qilar ekanlar. Sakkiz yoshga qadar qizlar o'g'il bolalarga qaraganda sezilarli darajada me'yordagi nutqqa ega bo'ladilar.¹⁰

¹⁰ Комсов В.В. Язык города. – М., 1991, С.100

Xotin-qizlar nutqidagi fonetik o'ziga xoslik nutqiy odatning turli vaziyatlarida aniq yuzaga chiqadi. Erkak kishining ovozi yo'g'on, kuchli, bir oz dag'allik aralashgan bo'ladi: “ – *Ho'...xola, turing, kelib qoldik!*”. (Cho'lpon) “*Tolib o'tirgan yerida do'ng'illadi: – Yurgandir, daydib. Keladi. Och qolib, sillasi qurib qaytib keladi*”. (Said Ahmad)

Talaffuzda ayollar erkaklardan ovoz tembri, pauzalarning xarakteri, nutq tempi bilan farqlanadi. Ayollar ancha mayin, ingichka ovozda, urg'uni yanada cho'zib so'zlaydilar. “- *Shunaqa ekanmi? Voy, tovvo-ey! Xalfa eshonning qizi chaqirtirgan ekanmi? Voy, tovvo-oy... – deb uning eng qitig'i keladigan joylariga chang solishardi*”. (Cho'lpon) “*Hoy kim bilan gaplashyapsan, bolam?*”. (Said Ahmad)

Xotin-qizlar xarakteri uchun xos bo'lgan xususiyatlardan biri xishayajonlarining, holatlarining tez yuzaga chiqishida ko'rinadi. Bu xususiyat ko'proq nutqiy vositalar bilan ifodalanadi. “ - *Voy, o'la qolay!... Jinni bo'libman men! – deb (Sultonxon) qichqirdi va yuzini yostiqa qo'yib, chap qo'li bilan boshiga mushtladi... - Yoshlik qilibmiz, aylanay. Bilmabmiz. U ashulachi qizning dovrug'i dunyoni bosdi... Hammaning og'zida o'sha. Eringizday uchiga chiqqan xotinboz u bulbulnikiday ovozni o'z qulog'i bilan eshitsin-u darrov sovchi qo'ymasin – bo'ladimi, qalay? Kelinchak birdaniga yotgan yeridan turib, Umrinisabibining yelkasiga osildi:...*”. (Cho'lpon) “*Voy, nega ertaga kelarkan, bugun kelsin*”. (Said Ahmad)

O'zbek xotin-qizlari nutqiga xos “aylanay”, “girgitton”, “o'rgulay”, “qoqindiq” kabi so'zlar ijobiy ma'no nozikligini ifodalovchi leksik vositalar sanaladi. Ular ko'proq keksa ayollar tomonidan nutqiy odatning turli vaziyatlarida qo'llanadi: “Kechqurun ko'cha eshigi taqilladi-yu, kampirning “Voy, o'rgilay”, “Voy, girgitton” degan tovushi eshitildi” (A.Qahhor). Xotin-qizlar nutqining individual xususiyatlarini “voy” undovining qo'llanilishi asosida ham oydinlashtirish mumkin: “ma'lum bo'lishicha, “voy” undovi o'ndan ortiq ma'no nozikliklarini ifodalaydi. Sevinish, erkalash, achinish, qo'rqish, havas,

sarosimalanish, koyish, alam kabi qator ichki holatlarning yuzaga chiqishida, bu so'z ma'lum darajada ahamiyatga ega...".¹¹

“ – *Voy, aylanay! Enaxon! Jonim o'rtog'im! Bormisiz? – deb paranjisini qo'liga olib Salti yugurdi*”. (Cho'lpon) Erkaklar nutqida “*oshna*”, “*boja*”, “*jo'ra*”, “*onasi*” kabi undalmalar uchrasa, ayollar nutqida “*ovsin*”, “*dugonajon*”, “*egachi*”, shuningdek turmush o'rtog'iga qarata “*dadasi*” murojaat shakllari mavjud.

“ – *Oyi, o'zim? – so'radi bir narsa deyish uchun. - O'choqqa o't qala. Dadang tushmagur-a, dadang tushmagur!*”. (O'lmas Umarbekov)

Ayollar nutqi hudud jihatdan ham o'ziga xoslikka ega bo'lib, qishloqlarda yashovchi ayollar nutqida “*o'lsin*”, “*men o'lay*”, “*voy o'lay*”, “*jonini olsin*” kabi so'zlar ancha faol qo'llanadi¹²: “*Voy o'lay, qanaqa dadangiz?*”, “*...o'lsin, tush ham yomon narsa ekan....*” (T.Jo'rayev).

O'zbek tilida ham dunyodagi barcha tillar kabi, fikr faqat lingvistik yo'l bilangina emas, balki lingvistik bo'lmagan (ekstralingvistik yoki paralingvistik) vositalar – imo - ishoralar hamda implitsit (bo'laklarga ajralmas) tovushlar yordamida ham ifodalanadi.¹³ Kishi jonli so'zlashuv nutqida ma'lum axborotni qisqa va lo'nda ifodalashda, fikrning emotsionalligini va ta'sirchanligini oshirishda holat va sharoitdan kelib chiqib tilga yondosh bo'lgan imo-ishoralardan (noverbal vositalardan) foydalanadi.¹⁴ Nutqni to'ldiruvchi noverbal vositalarda ham genderologik farqlarni kuzatish mumkin. Shuning uchun, ekstralingvistik asoslardan bo'lgan noverbal vositalarni ham gender lingvistikasi nuqtai nazaridan tadqiq qilish zarur. Chunki erkak va ayolning o'ziga xos mimikalari va jestlari bor.

¹¹ Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари. Фил.фанлари номз.дисс.автореферати. Самарқанд, 1993. 19-бет.

¹² Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг жинс жиҳатдан хосланиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 64-66 бетлар.

¹³ Қаранг: Нурмонов А. Ўзбек тилининг паралингвистик воситалари ҳақида. Андижон. 1980.

¹⁴ Саидхонов М. Алоқа-аралашув ва имо-ишоралар. – Т. “Фан”. 2008, 3-бет.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek tilida faqatgina ayollarga yoki erkaklarga xos bo'lgan so'zlashuvning gender xususiyatlari, ayrim xorijiy tillarda ikkala jins vakillariga ham xos bo'lishi mumkin. O'zbek tilining gender xususiyatlarini o'rganuvchi tadqiqotchilar kelgusida ushbu fikrni batafsil dalillab, chuqurroq tahlil etadilar. Zero, nutqimizdagi so'zlarni gender tilshunosligi tamoyillari asosida tahlil qilish, jins nuqtai nazaridan o'rganish gender tilshunosligining yangi qirralarini ochishda muayyan ilmiy ahamiyatga egadir.

1.3 Gender tilshunosligining O'zbekistondagi tadqiqi

G'arb tillaridagi gender omili keng o'rganilgan va o'rganib kelinmoqda. MDH xalqlari tillari misolida ham keyingi yillari muayyan materiallar to'plandi. Bu borada rus tilshunoslarining tadqiqotlari anchayin salmoqli. O'zbek tilshunosligida ham bu muammo qo'yildi. Mazkur soha borasida muntazam ravishda xalqaro konferensiyalar ham o'tkazilmoqda. M.Qurbonova, S.Boymirzayeva, N.Bekmuxamedova va B.Yo'ldoshev kabi ko'plab O'zbekistonlik mutaxassislarning e'tibori mazkur muammoni tadqiq etishga qaratilgan. M.Qurbonova tadqiqotlarni kuzatib bu sohada ikkita jihatga alohida e'tibor qaratilayotganligini ta'kidlaydi:

1. Ayol va erkaklar ma'lum bir voqeylik yoki uning parchasini tasvirlashda, yoki boshqa holatlarda fikrlarni o'ziga xos tarzda bayon etishi (nutqning gender xususiyati);

2. Muayyan til tizimida ayollik va erkaklik belgilari bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi lingvistik vositalarning mavjudligi (til tizimida ayol va erkaklarni bir-biridan ajratish, farqlashga xizmat qiluvchi til birliklarini belgilash)ga katta e'tibor qaratilgan va tahlil qilingan².

XX asrning 90-yillariga kelib dunyo tilshunosligida gender tilshunosligi borasida izlanishlar olib borish qizg'in tus oldi. Ayniqsa, bu borada rus tilshunosligida e'tiborga molik ishlar amalga oshirildi. Shuningdek, Z.Akbarovanning "O'zbek tilida murojaat shakllari va uning lisoniy tadqiqi" hamda N.Ahmedovanning "O'zbek tilida murojaat birliklarining semantik-konnotativ tadqiqi" mavzusidagi nomzodlik ishlarida jins anglatish maydoniga ko'ra murojaat so'zlar guruhining izohi haqida to'xtalib o'tilgan. Sh.Iskandarovanning "O'zbek nutq odatining muloqot shakllari" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida ayol va erkaklarga xos ba'zi lingvistik farqlar va "O'zbek tili leksikasini mazmuniy maydon sifatida o'rganish (shaxs mikromaydoni)" mavzusidagi doktorlik

dissertatsiyasida jinsiy va fiziologik holat asosida farqlangan shaxs nomlari haqida, shuningdek, olimaning “Ayollar nutqida undov soʻzlarning qoʻllanishi”, “Oʻzbek nutq odobini ifodalovchi paralingvistik vositalar” nomli maqolalarida ayollar nutqiga xos baʼzi lingvistik xususiyatlar haqida qimmatli maʼlumotlar berilgan. Jumladan, xotin-qizlarga xos xususiyatlardan biri ular his-hayajonlarining, holatlarining tez yuzaga chiqishidir, bu xususiyat koʻproq nutqiy vositalar bilan ifodalanadi. Ayollar nutqida dialogga moyillik nisbatan ustunroq ekanligi Sh.Iskandarova tadqiqotlarida qayd etilgan. M.Saidxonovning “Noverbal vositalar va oʻzbek tilida ularning ifodalanishi” mavzusidagi nomzodlik ishida oʻzbek va boshqa millat ayollarining qaygʻuni ifodalovchi usullari haqida toʻxtalib oʻtgan. F.Musayeva esa “Oʻzbek tilida biologik jinsni ifodalashning leksik-semantik usuli” nomli maqolasida erkak va ayol jinsi maʼnosini ifodalovchi leksemalar haqida maʼlumot beradi.

Ushbu sanab oʻtilgan tadqiqotlarda bir tomonlama, yaʼni, asosan ayollar nutqining baʼzi lingvistik xususiyatlari yoritilgan boʻlib, ularda gender atamasi umuman qoʻllanilmagan va gender oʻrganish obyekti sifatida tadqiq qilinmagan. Shunday boʻlsa ham, koʻrsatilgan tadqiqotlar Oʻzbekistonda gender tilshunosligining boshlanishiga va rivojlanishidagi ilk izlanishlar natijasi sifatida ahamiyatga molik.

Respublikamizda gender tilshunosligi borasida dastlabki qadamlar qoʻyildi. Jumladan, A.Morozova, I.Toʻxtasinov va G.Ergasheva kabi yosh olimlarning nomzodlik tadqiqotlari bunga yaqqol misoldir. A.Morozova gender masalasiga ispan tili materiallari asosida yondashib, “erkaklik” va “ayollik” konseptlari mazmuni, ularga xos gender stereotiplar tavsifi haqida ilmiy mulohazalar bildiradi. Uning tadqiqoti kognitiv yoʻnalishda olib borilgan boʻlishiga qaramay, tadqiqotchi gender tilshunosligiga ham taalluqli fikr-mushohadalar va taxminlarini ilmiy asosda havola qiladi. I.Toʻxtasinov ingliz va oʻzbek tillariga xos badiiy matnda qoʻllanuvchi erkak hamda ayollarga xos fiziologik, yaʼni, yuz va tana tuzilishi bilan bogʻliq leksik birliklarning gender farqlanishini qiyosiy-tipologik aspektda

keng ochib bergan. G.Ergasheva ingliz va o'zbek tilining frazeologik va paremiologik sistemasiga xos erkak va ayol tushunchalarining gender, pragmatik, kognitiv xususiyatlari, gender stereotiplarning o'zbek frazeologiyasidagi tavsifi, o'zbek paremiyalarining gender tahlili, ularning ingliz tilidagi ifodalari bilan o'xshash yoki noo'xshash jihatlari haqida fikr yuritadi. Jumladan, "Gender munosabatlarini o'rganish mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan, chunki gender muammosi ma'naviyatni yuksaltirish, o'zlikni anglash, inson haq-huquqlarini poymol etmaslik kabi masalalarni ifodalaydi" – deya gender tilshunosligining aynan bugungu kundagi rivoji nechog'li ahamiyatli ekanligi ta'kidlanadi.

Gender lingvistikasiga jiddiy e'tibor f.f.d., prof. M. Qurbonovanning tadqiqotlarida ham kuzatiladi. 2011-yilda chop etilgan "O'zbek tilshunosligi. Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyoti ko'zgasida" nomli ilmiy maqolalar to'plamida S.Boymirzayeva bilan hamkorlikda "Tilshunoslikda gender tadqiqotlar" hamda "O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari" respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari ilmiy to'plamida N.Rajabova bilan hammualliflikda "Diskursning gender xususiyatlari" nomli ilmiy maqolalari o'rin olgan. Bu kichik tadqiqotlarda tilshunoslikda gender yo'nalishning tadrijiy taraqqiyot yo'li, shu yo'nalishning paydo bo'lishiga turtki bo'lgan g'oyalar va ilmiy xulosalar, sotsiologiya, psixologiya va boshqa fanlarning tilshunoslik bilan umumiy tahlil usullarining paydo bo'lishi va ularning yangi yo'nalishlarga asos bo'lib xizmat qilishi haqida fikr yuritilgan. Ayniqsa, "Tilshunoslikda gender tadqiqotlar" maqolasida M.Qurbonova til va gender munosabati, jahon ilmiy maydonida gender atamasining ma'nolari, g'arb va rus tilshunoslarining bu yo'nalishdagi muhim ishlarini sanash bilan birga genderologiyaning umumlingvistik mohiyatini aniqlashga harakat qiladi. Dastlabki genderolingvistik tadqiqotlarda til vositalarining gender xossalariiga ko'proq e'tibor berilgan bo'lsa, hozirgi kundagi gender tadqiqotlarda erkak va ayollarga xos bo'lgan "lingvistik assimetriya"ni aniqlash va uning ijtimoiy jins tushunchasi bilan munosabatini belgilashga

qaratilgani haqli ravishda bayon etilgan. Har ikkala maqolada ham muallif gender tilshunosligining milliy xususiyatlari mavjudligini ta'kidlaydi.

Shu bilan birga gender tilshunoslik tadqiqiga bag'ishlangan bir qator ilmiy maqolalar tadrijini ham kuzatishimiz mumkin. Masalan, "O'zMU yosh tadqiqotchilari ilmiy ishlari" (Toshkent, 2004) to'plamida nashr qilingan M.Qurbonovanning "Grammatik jins va biologik jins tushunchalari talqini xususida" maqolasida J.S.Nesfieldning "Jins otlarning ma'nolariga ko'ra farqlanadi. Erkaklik jinsidagi (mujskoy rod)dagi otlarga so'zlar ma'lum darajada kuch, vahshat kabi ma'nolarni, ayollik jinsini ifoda etuvchi so'zlar muloyimlik, nafislik, g'amxo'rlik kabi ma'nolarni anglatishi kerak"¹⁵ degan fikri iqtibos sifatida o'rinli keltiriladi. Maqolada muallif grammatik (formal) va biologik (real) jins tushunchalarini bir-biridan farqlash zarurligi, ular tilda so'zlarning mazmuniy hamda shakliy jihatlariga bog'liqligini misollar yordamida izohlashga harakat qiladi.

Ayni shu ilmiy to'plamda jurnalistika fakulteti magistranti Z.Tadjiyevaning "Gendernaya problematika v presse" maqolasi ham o'rin olgan. Magistrant o'z kichik tadqiqotida bugungi kun matbuotida erkaklarga qaratilgan maxsus nashrlar va ayollarni qiziqtiruvchi alohida gazeta va jurnallar, maxsus u yoki bu jins vakillari e'tiborini tortuvchi rubrikalar, ommaviy axborot vositalarida qo'llanilayotgan so'zlarning gender jihatdan xoslanganligini "Xalq so'zi", "Pravda Vostoka" hamda "Oila va jamiyat" gazetalari misolida o'rganib, o'z mulohazalarini bayon qiladi.

O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida 2011-yilda "Jahon adabiyoti" fanini o'qitishning dolzarb muammolari" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi to'plamiga kiritilgan N.M.Yuldashovanning "Gendernie aspekti pri izuchenii zarubejnoy literaturi" va Sh.R.Sultonovanning "Badiiy asarlarda ayollar nutqining ta'sirchanligini ifodalash vositalari" nomli maqolalarida ham gender xususiyatlar o'zbek tili materiallari misolida tadqiq qilinadi.

¹⁵ Nesfield J.C. English Grammar. London. 1916. P.15.

Lingvistikada gender masalalarga e'tiborning kengayib borishini biz 2013-yilda chop etilgan "Tilshunoslikning dolzarb masalalari" (ilmiy maqolalar to'plami, VI kitob) to'plamida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Mazkur to'plamda gender masalalariga alohida "Genderologiya" bo'limi ajratilgan bo'lib, unda N.Bekmuhammedovning "Tanishuv e'lonlarida uchraydigan xulq stereotiplarining gender aspekti xususida", B.Yo'ldoshev va K.Rajabovalar hammuallifligida yozilgan "Shaxs tavsifi uchun qo'llanuvchi zoonimlarning gender xususiyatlariga doir", M.Isayevaning "Badiiy dialogik nutqda qo'llanuvchi ba'zi vulgarizmlarning gender xususiyatlari haqida" deb nomlangan maqolalari o'rin olgan.¹⁶

Shuningdek, bugungi kunda magistratura bosqichi talabalarining ham tilshunoslikning yangi sohalariga bo'lgan qiziqishi ortib borayotganini kuzatish mumkin. Jumladan, pragmalingvistika, tijorat lingvistikasi, sotsiolingvistika, psixolingvistika, kompyuter lingvistikasi, kognitiv lingvistika hamda gender lingvistikasi tadqiqiga bag'ishlangan magisterlik dissertatsiyalarining tayyorlanayotgani respublikamizda lingvistikaning mazkur yo'nalishlari tez sur'atlarda rivojlanayotganidan darak beradi.

B. Ahmedovning "O'zbek tilida gender tadqiqi" mavzusidagi magisterlik dissertatsiyasida ham gendrologiyaning ayrim o'ziga xos jihatlarini ochib berilgan va tahlil qilingan. Mullif o'zining kichik ilmiy ishida quyidagi xulosalarni beradi:

1. Gender ko'p aspektli tushuncha hisoblanadi. Shu bois gender bilan bog'liq muammolar ko'pgina sohalarining tekshirish ob'yekti hisoblanadi. Xususan, sotsiologiya, psixologiya, kognitologiya, lingvistika kabi fanlarda gender turli aspektlarda tadqiq etilmoqda. Gender – ijtimoiy qurilma sifatida tilshunoslik fanida ham o'ziga xos o'rin tutadi. Shuning uchun gender eng ko'p o'rganilayotgan soha ham tilshunoslikdir.

2. Lingvistik genderologiya har qanday yangi yo'nalish kabi o'ziga xos qirralarga, ya'ni tushunchalar apparati kategoriyalari aniq shakllanmagan yangi

¹⁶ Abdukarimova N. "Shaytanat" asari tilining gender xususiyatlari. Magisterlik dissertatsiyasi. Toshkent, 2014. 13-17-betlar.

yo'nalishdir. Bu yangi yo'nalish o'ziga xos tadqiqot usullari va metodlarining shakllanish jarayonidadir. Shu bilan birga tilshunoslik ilmiy maydonidagi olimlar lingvistik tadqiqotlar metodlaridan hamda, sotsiolingvistika, psixolingvistika va boshqa gumanitar fanlar (lingvistika, tarix, adabiyotshunoslik va boshq.) metodlaridan foydalanishyapti.

3. Tilshunoslikda gender masalalarini o'rganishda nutqiy faoliyatning barcha ko'rinishlari: yozma va og'zaki matnlar tadqiqot ob'yekti bo'lib xizmat qilishi mumkin. Dunyo tilshunosligida bu masalalarga bag'ishlangan ishlar anchagina. Til va gender muammosi tadqiqida diskursga alohida ahamiyat berilishiga sabab aynan so'zlashuvda ayollik va erkaklik belgilari bilan shartlangan ko'plab hodisalar, jumladan, nutqning ayol yoki erkaklarga xos xususiyatlari voqelanadi. Shu jihatdan diskursning gender xususiyatlarini ochib berish juda qiziqarli ma'lumotlarni beradi.

4. O'zbek tilida ham dunyodagi barcha tillar kabi, fikr faqat lingvistik yo'l bilangina emas, balki lingvistik bo'lmagan (ekstralingvistik yoki paralingvistik) vositalar – imo-ishoralar hamda implitsit (bo'laklarga ajralmas) tovushlar yordamida ham ifodalanadi. Nutqni to'ldiruvchi noverbal vositalarda ham genderologik farqlarni kuzatish mumkin. Shuning uchun, ekstralingvistik asoslardan bo'lgan noverbal vositalarni ham gender lingvistikasi nuqtai nazaridan tadqiq qilish zarur. Chunki erkak va ayolning o'ziga xos mimikalari va jestlari bor.¹⁷

N.Abdukarimovanning “Shaytanat” asari tilining gender xususiyatlari” mavzusidagi magisterlik dissertatsiyasida ham gender tadqiqiga oid ko'plab qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, gender tushunchasi erkak va ayol o'rtasida nafaqat biologik farqni, balki jamiyatning jinsiy taqsimotida ijtimoiy va madaniy tavsiflarni to'liq qamrab oladi. Erkak va ayollarga tegishli ijtimoiy bog'liqlik, xulq-atvor va o'ziga xos stereotiplarda ifodalanashi, inson jinsda nafaqat fiziologik jihatdan farqlanadi, balki uning atrofida gilar bilan muomalasi,

¹⁷ Ahmedov B. “O'zbek tilida gender tadqiqi”. Magisterlik dissertatsiyasi. Andijon, 2012. 38-bet.

nutqi, va, hatto, dunyoqarashida ham jinsdagi o'ziga xos, farqli yoki mushtarak jihatlar namoyon bo'ladi.

Ularni ilmiy tadqiq qilish gender tilshunosligining yanada boyishi va rivojlanishiga xizmat qilishi, XX asrning 90-yillariga kelib dunyo tilshunosligida gender tilshunosligi borasida izlanishlar olib borish qizg'in tus olganligi, asrimizning boshlaridan O'zbekistonda gender tilshunosligining alohida ilmiy soha sifatida shakllanishi va rivojlanishi ahamiyatga molik ekanligi, ayol semasini ifodalovchi leksik birliklar bilan birga qo'llanuvchi sifatlovchilarni kuzatar ekanmiz, bu birliklarda murojaat etilayotgan ayolga nisbatan so'zlovchining munosabati yaqqol namoyon bo'lishi, o'zbek tilining boy imkoniyatlari insonga qarindoshlik rishtalari bilan bog'langan shaxslarni turli nomlar bilan atash uchun keng ko'lamli manba bo'lib xizmat qiladi. Bunday nomlarda maskulinlik va feminlik belgilarining yaqqol namoyon bo'lishi, erkak kishiga nisbatan qo'llanuvchi nomlar orasida ota semasini ifodalovchi leksik birliklar, ayniqsa, alohida e'tirof etiladi.

O'zbek oilasida, odatda, ayol o'z eriga ismi orqali juda kam hollarda murojaat qiladi. Boisi, ayolning o'z eriga bo'lgan cheksiz hurmati, qadrlashi, shu bilan birga faqat sharq ayollarigagina xos bo'lgan nafaqat o'z turmush o'rtog'iga, balki oilaning boshqa a'zolariga ham andisha, xijolat yoki uyalish kabi tuyg'ularning ustunligidandir. Shu sababli xotin o'z eriga *odam, bu kishi, aka* (ismiga qo'shib), *begim, jonim, azizim* kabi murojaat shakllarini qo'llaydi. *Odam, bu kishi, aka* kabi leksik murojaatlarni, odatda, suhbatdoshlar davrasida ishlatib, *begim, jonim, azizim* kabi murojaat shakllarini o'zaro suhbatda, faqat er-xotin o'rtasidagina qo'llashi, erkaklar o'zaro salomlashganda, ko'rishganda yoki xayrlashganda ularning nutq odobida bu ishni alohida lutf-u nazokat bilan amalga oshirishga ishtiyoqning yo'qligi erkaklar salomlashishidagi o'ziga xoslikni belgilashi, erkak kishi muayyan xursandchilik vaziyatida hayajon tufayli erkaklarga xos qat'iyatlilikni biroz bo'lsa-da yumshatishi hamda uning xatti-harakatlarida erkaklarga xos nazokat va samimiylik o'zgacha holatda namoyon

bo`lishi, neytral vaziyatlarda erkaklarga ham, ayollarga ham birdek xos bo`lgan, yoki boshqacha qilib aytganda, jinsga ajratilmaydigan alohida nutqiy birliklarning talaygina ekanligi, o`zbek xalqi nutq odatida alohida olingan marosimlarda erkaklarning vazifalari, xatti-harakatlari hamda ayollarning vazifalari va har bir xatti-harakatlari izchillik bilan ishlab chiqilgan. Shunday ekan, har bir jins vakillari o`z xoslik doirasidan chiqib ketmasligi¹⁸ kabi fikrlar yorqin misollar orqali ifodalangan.

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, o`zbek tilshunosligida ma`lum darajada gender lingvistikasi sohasida izlanishlar olib borilmoqda. Bu izlanishlar gendrologiyaning O`zbekistondagi istiqbolini belgilaydi. Shunday ekan, tilshunos tadqiqotchilarimiz oldida mazkur sohaning o`rganilmagan qirralarini o`rganish va uni kengroq tadqiq etish masalasi turibdi.

¹⁸ Abdukarimova N. "Shaytanat" asari tilining gender xususiyatlari. Magisterlik dissertatsiyasi. Toshkent, 2014. 68-70-betlar.

Bob bo'yicha xulosalar

Biz mazkur “Gender lingvistikasini o'rganilishi” deb nomlangan I bob bo'yicha fikrlarimizni umumlashtirgan holda quyidagi xulosalarga keldik:

1. Gender tadqiqotlar jinslararo biologik emas, balki ijtimoiy farqlarga alohida e'tibor qaratgan bo'lib, bunda xotin-qizlarning ijtimoiy, intellektual shaxsiy imkoniyatlarini to'liq namoyon etishi muhim jarayon hisoblanadi.

2. Gender lingvistikasi – ilmiy yo'nalishdagi gender tadqiqotlari tarkibiga kirib, lingvistik tushunchalar yordamida genderni o'rganadi.

3. Gender lingvistikasining rivojlanishi zamonaviy falsafaning rivojlanishi va gumanitar fanlarning ilmiy yo'nalishlarini almashinishi bilan bog'liq holda XX asrning oxirgi 10 yilliklariga to'g'ri keladi.

4. Gender ko'p aspektli tushuncha hisoblanadi. Shu bois gender bilan bog'liq muammolar ko'pgina sohalarning tekshirish ob'yekti hisoblanadi. Xususan, sotsiologiya, psixologiya, kognitologiya, lingvistika kabi fanlarda gender turli aspektlarda tadqiq etilmoqda. Gender – ijtimoiy qurilma sifatida tilshunoslik fanida ham o'ziga xos o'rin tutadi. Shuning uchun gender eng ko'p o'rganilayotgan soha ham tilshunoslikdir.

5. Gender lingvistikasi sohasidagi ilmiy tadqiqot ishlarida kattalar nutqi, o'smirlar nutqi, bolalar nutqiga e'tibor qaratilgani holda, ayol va erkaklar nutqi, o'g'il bolalar va qiz bolalar nutqi, badiiy asarlardagi gender munosabat borasidagi farqlanishlar; ijtimoiy rollar, faoliyat shakllarining bo'linishi, xatti-harakat va individlarning psixologik tavsiflaridagi farqlar nazarda tutiladi.

6. Tilshunoslikda gender masalalarini o'rganishda nutqiy faoliyatning barcha ko'rinishlari: yozma va og'zaki matnlar tadqiqot ob'yekti bo'lib xizmat qilishi mumkin. Dunyo tilshunosligida bu masalalarga bag'ishlangan ishlar anchagina. Til va gender muammosi tadqiqida diskursga alohida ahamiyat berilishiga sabab aynan so'zlashuvda ayollik va erkaklik belgilari bilan shartlangan ko'plab hodisalar, jumladan, nutqning ayol yoki erkaklarga xos xususiyatlari

voqelanadi. Shu jihatdan diskursning gender xususiyatlarini ochib berish juda qiziqarli ma'lumotlarni beradi.

7. O'zbek tilida faqatgina ayollarga yoki erkaklarga xos bo'lgan so'zlashuvning gender xususiyatlari, ayrim xorijiy tillarda ikkala jins vakillariga ham xos bo'lishi mumkin.

8. O'zbek tilshunosligida ma'lum darajada gender lingvistikasi sohasida izlanishlar olib borilmoqda. Bu izlanishlar gendrologiyaning O'zbekistondagi istiqbolini belgilaydi. Shunday ekan, tilshunos tadqiqotchilarimiz oldida mazkur sohaning o'rganilmagan qirralarini o'rganish va uni kengroq tadqiq etish masalasi turibdi.

II BOB. FRAZEOLOGIZMLARNING GENDER TADQIQI MUAMMOLARI

2.1 Frazelogizmlarning umumiy tasnifi

Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, inson tabiati, fe'l-atvori go'dakligidan shakllanar ekan, milliy dunyoqarash ham bola vujudiga ona suti bilan kiradi. Mana shunga alohida e'tibor berishingizni iltimos qilmoqchiman. Tabiiyki, ona allasi faqat chaqaloqning orom olishi uchungina aytilmaydi. Balki, uning vositasida bolaning ko'ngil dunyosiga milliy ruh kiradi. Ona tilidagi mehr-u muhabbat, nasliy tuyg'ular va orzular go'dakning jism-u jonida ildiz qoldiradi.

O'zbek tili-ona tilimizning juda boy, ma'nodor, jozibali va rang-barangligi Navoiy zamonidayoq isbotlangan.

Prezidentimiz aytganlaridek, qadriyatlarimiz, e'tiqod va tafakkurimiz, urf-odat va an'analarimiz, boy ilmiy, tarixiy merosimizni asrab-avaylash va chuqur o'rganish orqaligina ma'naviy olamimizni yuksaltirishimiz mumkin bo'ladi.¹⁹

O'zbek tilida alohida o'ringa ega bo'lgan iboralar bu til mazmunini yanada boyituvchi ma'naviy xazinadir. O'zbekistonda maqol, naql, iboralar ustida ilmiy-ijodiy ishlar olib borilgan, kitob nashr ettirgan ziyolilarning asarlari bu boradagi sezilarli yutuqlardir.

Maqol va iboralar jam bo'lgan SH.SHomahmudov, A.SHorahmedovlarning «Hikmatnoma», «Nega shunday deymiz» asarlari bu yo'ldagi yirik madaniy-ma'rifiy, ilmiy hodisa bo'lib, ulardan o'zbek maqol, naql, ibora, hikmatlarning asosiy qismi o'z muqobillari bilan alfavit tartibida keng o'rin olgan. Bu asarlar, atoqli shoirimiz E.Vohidov ta'kidlaganidek, o'zbek xalqining madaniy hayotidagi yirik gavhar-xazinalardir.

¹⁹ Каримов И.А. Асосий вазифамиз – Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. – 2009 йилнинг асосий якунлари ва 2010 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи, 2010 йил 30 январь.

Zahmatkash tilshunos olim Sh.Rahmatullayevning «O'zbek tilining frazeologik lug'ati» kitobi uzoq yillik tinimsiz mehnat mahsuli sifatida bu sohada muqobil, tengi yo'q ilmiy, ma'rifiy asardir. Bu kitob ham krillitsa-rus alfaviti asosida tuzilgan ko'p ming sonli frazeologik-ibora lug'atidir.²⁰

Ikki va undan ortiq so'zlarning o'zaro barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutq jarayoniga tayyor holda olib kiriluvchi, til egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud bo'lgan til birliklari barqaror birikmalar deyiladi. Barqaror birikmalarning eng xarakterli belgilari quyidagilar:

1. Nutq jarayoniga qadar tilda mavjudlik: nutqqa tayyor holda olib kirishlik;
2. Ma'no butunligi;
3. Tuzilish va tarkibining barqarorligi.

Barqaror birikmalarni o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi paremiologiya (lotincha parema "barqaror", "logos" ta'limot), barqaror birikmalar lug'atini tuzish muammolarini o'rganuvchi bo'lim esa paremiografiya sanaladi. Barqaror birikmalar nutqqa tayyor holda olib kirilishi, tarkibiy qismlarining barqarorligi belgisiga ko'ra umumiylikni tashkil etsa ham, ma'no butunligi nuqtai nazaridan turlichadir. Shunga ko'ra barqaror birikmalar quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1) Frazeologizmlar.

2) Maqol va matallar.

3) Aforizmlar. Aforizm – (grekcha) chuqur ma'noli, qisqa, ixcham ibora, hikmatli so'z. Masalan, Navoiy aforizmlari.

Barqaror birikmalarning bir guruhi tarkibidagi so'zlar ma'no jihatdan uyg'unlashib, mazmuniy yaxlitlikni vujudga keltiradi va ko'pincha mazmunan bir leksemaga teng keladi va ko'chma ma'noda ishlatiladi. Masalan, qulog'i ding

²⁰ Йўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари. Самарқанд, 1999 йил. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг қисқача фразеологик луғати. Тошкент, «Ўқитувчи» нашриёти, 1984 йил. Раҳматуллаев Ш., Миртожиев М., Қодиров М. Ўзбек тилининг қисқа этимологик луғати. Тошкент, «Ўқитувчи» нашриёти, 1997 йил.

bo‘lmoq – hushyor bo‘lmoq, qovog‘i osilmoq – xafa bo‘lmoq, og‘zining tanobi qochmoq – quvonmoq kabi.

Ma’no yaxlitligiga ega bo‘lgan va nutqiy jarayonga qadar ikki va undan ortiq so‘zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi ko‘chma ma’nodagi barqaror birikmalarga frazeologizmlar deyiladi. Frazeologizmlar gap tarkibida uning bir bo‘lagi vazifasida keladi. Frazeologizmni tashkil etgan so‘zlar frazeologizmning faqat ichki uzvlari sanaladi. Gapning boshqa bo‘laklari bilan yaxlit, bir butun holda munosabatga kirishadi. Masalan, *Rais daladagi hosilni ko‘rib boshi osmonga yetdi*. Bu gapdagi boshi osmonga yetdi qismi butun holda kesim vazifasida keladi.

Frazeologik birlik sifatida ibora atamasi ham ishlatiladi. Ikki va undan ortiq so‘zdan tarkib topgan va yaxlit bir ko‘chma ma’no ifodalaydigan, ta’sirchanlikka ega bo‘lgan til birligi ibora (frazeologik birlik) deyiladi: *qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan* (yuvosh), *kapalagi uchib ketdi* (cho‘chidi), *og‘zing qani desa qulog‘ini ko‘rsatadi* (lapashang) va h.

Iboralar ahamiyati va qo‘llanishi jihatidan, odatda, so‘zga teng keladi. Iboralar ko‘proq so‘zlashuv nutqida va badiiy asarlarda ishlatiladi. Ulardan unumli foydalanish nutqning ta’sirchanligini oshiradi. Til fanining iboralarni o‘rganadigan bo‘limi frazeologiya deb ataladi. Leksikologiyada keng o‘rganiladigan hodisalardan biri frazeologiya hodisasi sanaladi. Agar bir tilda shu til sohiblarining ko‘p asrlik tajribalari asosida yaratilgan, azaldan taxt holatga keltirib qo‘yilgan, uslubiy bo‘yoqdorlikka ega bo‘lgan barqaror til birliklari mavjud bo‘ladi. Ularga turg’un iboralar deb qarash ham bor. Ikki va undan ortiq so‘zdan tashkil topgan va yaxlit bir ma’noni ifodalaydigan til birliklariga frazeologik birlik yoki frazeologizm deyiladi. Frazeologizmlar ikkinchi bir nom - frazema nomi bilan yuritiladi. Frazeologizmlar (frazemalar)ni o‘rganuvchi til bo‘limi frazeologiya atamasi bilan yuritiladi. Bu so‘z grekcha “phrasis” - ibora va “logos” - ta’limot so‘zlaridan olingan.

Frazeologiyaning o'rganish predmeti frazeologizmlarning tabiati va zotiy xususiyatlari hamda ularning nutqda amal qilish qonuniyatlaridir.

Frazeologizmlar til hodisasi sifatida lison va nutqqa daxldor birliklardir. Birdan ortiq mustaqil leksema ko'rinishining birikuvidan tashkil topib, obrazli ma'noviy tabiatga ega bo'lgan lisoniy birlik frazeologizm deyiladi: *tepa sochi tikka bo'ldi, sirkasi suv ko'tarmaydi, o'takasi yorildi, do'ppisi yarimta, ikki gapning birida, boshga ko'tarmoq* va boshqa.

Frazeologizmlar ibora, frazeologik birlik, frazeologik birikma atamaları bilan ham yuritiladi.

Frazeologiya leksikologiya bo'limining tarkibiy qismidir. Frazeologizmlar tashkil etuvchilarga ko'ra qo'shma leksemalar, so'z birikmasi va gaplarga o'xshaydi. Biroq ular ko'proq qo'shma leksemalar kabi til jamiyati ongida tayyor va barqaror holda yashaydi. Boshqacha aytganda, frazeologizmlar lisonda barcha lisoniy birliklarga xos bo'lgan umumiylik tabiatiga ega bo'ladi va nutqda xususiylik sifatida namoyon bo'ladi.

Quyidagi misollarga e'tibor berib ko'raylik: *tomdan tarasha tushganday, it quvlagan soqovday, ataladan chiqqan suyakday, o'pkasini qo'ltiqlab, oftobda qatiq yalashmoq, og'ziga mum solib olmoq, orasidan mushuk o'tmoq*.

Nutqni ta'sirchan qilish, emotsional-ekspressivlikni kuchaytirish maqsadida bir so'z o'rnida ko'chma ma'nodagi turg'un so'zlar birikmasidan foydalanilmoqda. *Tomdan tarasha tushganday* iborasi birdan, *it quvlagan soqovday* frazemasi tez so'zlari o'rnida qo'llangan. Qolgan frazemalarning ham leksik sinonimlarini topish mumkin.

Frazeologizmlar so'z birikmasi va gaplardan keskin farq qiladi. So'z birikmasi va gaplar nutq hodisasi sanaladi. Frazeologizmlar esa til hodisasi sifatida azaldan taxt holda bo'ladi.

Frazeologizmlar lug'aviy birlik bo'lganligidan u nutq jarayonida gaplar tarkibida bir mustaqil so'z kabi harakat qiladi- bir gap bo'lagi yoki kengaytiruvchi sifatida keladi: *1. Madamin bo'yniga qo'yilgan aybnomadan tamom hovuridan*

tushdi.(Parda Tursun). 2.Stol yoniga kelguncha uning boshi aylanib ketdi (Saida Zununova). 3.Qosh qo'yaman deb ko'z chiqaradigan bunday hodisalar hali ham onda-sonda ro'y berib turibdi.(«O'zbekiston adabiyoti» va san'ati.) 4.Kavushini to'g'rilab qo'yish kerak.(As.Muxtor.). 1-va 2-gaplarda frazeologizmlar gap markazi - kesim mavqeida, 3-gapda so'z kengaytiruvchisi aniqlovchi va 4-gapda butun bir egasiz gap vazifasida kelgan.

Frazeologizmlar tashqi ko'rinishi jihatidan so'z birikmasi va gap ko'rinishida bo'ladi. So'z birikmasi ko'rinishidagi frazeologizmlar: *ko'ngli bo'sh, enka-tinkasini chiqarmoq, jig'iga tegmoq, bel bog'lamoq, kir izlamoq, terisiga sig'may ketmoq* va h. Gap tipidagi frazeologizmlar «gap kengaytiruvchisi+kesim» qolipi mahsulidir: *istarasi issiq, ichi qora, labi-labiga tegmaydi, ko'ngli ochiq, tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq, kapalagi uchib ketdi, po'konidan yel o'tmagan, tepa sochi tikka bo'lmoq* va h.

Ayrim leksik birliklar frazeologizmlarning tadrijiy taraqqiyoti mahsulidir: *dardisar, toshbag'ir, boshog'riq*. Demak, leksemalar hosil bo'lish manbalaridan biri frazeologizmlardir.

Frazeologizmlar, asosan, belgi va harakat ifodalaydi. Demak, ular grammatik jihatdan belgi va harakat bildiruvchi so'z turkumlariga mansubdir.

Fe'l turkumiga mansub frazeologizmlar: *Me'dasiga tegmoq, yaxshi ko'rmoq, holdan toymoq, sabr kosasi to'lmoq, tepa sochi tikka bo'lmoq, og'ziga talqon solmoq, podadan oldin chang chiqarmoq*.

Sifat turkumiga mansub frazeologizmlar: *ko'ngli bo'sh, rangi sovuq, yuragi toza, avzoyi bejo, dili siyoh, kayfi buzuq*.

Ravish turkumiga mansub frazeologizmlar: *ipidan-ignasigacha, ikki dunyoda ham, miridan-sirigacha, ha-hu deguncha*.

So'z - gaplarga mansub frazeologizmlar: *turgan gap, shunga qaramay, katta gap*.

Frazeologizmlar tilshunosligimizda muayyan so'z turkumlari bo'yicha tasnif qilinmagan va grammatik xususiyatlari yetarli darajada o'rganilmagan.

Frazeologizmlar leksik birliklar kabi iste'mol chastotasi nuqtai nazaridan ham tasnif qilinadi. Bunga ko'ra umumiste'mol frazeologizmlari (*holdan toymoq, shunga qaramay, ro'yobga chiqmoq*) va qo'llanilishi chegaralangan frazeologizmlar farqlanadi. Qo'llanilishi chegaralangan frazeologizmlar qo'llanilish davri (eskirgan va zamondosh) va doirasi (dialektal, ilmiy, badiiy so'zlashuv) bilan ham ma'lum bir tafovutlarga ega.

Eskirgan frazeologizmlar: *alifni kaltak demoq, aliflayloni bir cho'qishda qochiradigan, dastin aliflom qilib, kallasini ham qilib, yeng silkitmoq.*

Dialektal frazeologizmlar: *alag'da bo'lmoq* (xavotir olmoq) *ko'ngli tob tashladi* (ezildi), *halak bo'lmoq* (ovora bo'lmoq), *qumortqisi quridi* (intiq bo'lmoq)

Ilmiy frazeologizmlar: *nazar tashlamoq, ko'zga tashlanmoq, chambarchas bog'lanmoq, to'g'ri kelmoq, imkoniyatlar doirasi, qulay qurshov.*

Badiiy frazeologizmlar: *sabr-kosasi to'lmoq, og'zining tanobi qochmoq, og'zidan bodi kirib, shodi chiqmoq, qildan qiyiq axtarmoq, six ham kuymasin, kabob ham, boshida yong'oq chaqmoq.*

So'zlashuv nutqi frazeologizmlari: *arpasini xom o'rmoq, yerga urmoq, yuragi qon, ko'zi tor, ko'zi och, boshi ochiq.*

Frazeologizmlarning aksariyati badiiy va so'zlashuv nutqiga xosdir.

Frazeologizmlarning semantik strukturasi. Frazeologizmlar ikki yoqlama lisoniy birlik bo'lib, shakl va mazmunning dialektik birligidan iborat. Frazeologizmlarning shakliy tomonini so'zlar (leksemalar emas) tashkil qiladi. Ularning mazmuniy tomoni frazeologik ma'nodir. Frazeologik ma'no o'ta murakkab tabiatli bo'lib, leksemalarda bo'lgani kabi ularning ayrimlari denotativ tabiatli bo'lsa, boshqalari grammatik ma'noga ega, xolos. Masalan, mustaqil so'z turkumlariga kiruvchi frazeologizmlar: (*burgaga achchiq qilib, ko'rpaga o't qo'ymoq, tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq, ko'ngli bo'sh, hash-pash deguncha*) denotativ ma'noga ega bo'lsa, *turgan gap, shunga qaramay* kabi nomustaqil frazeologizmlar faqat grammatik vazifa bajaradi.

Odatda, frazeologizmlarning ma'nosi bir leksema ma'nosiga teng deyiladi. Biroq hech qachon ular teng emas. Chunki frazeologizm va leksema ma'nosi teng bo'lsa edi, unda frazeologizm ortiqcha bo'lib qolar edi. Misol sifatida [*yoqasini ushlamoq*] frazeologizmi bilan [*hayron bo'lmoq*] leksemasining ma'nolarini qiyoslab ko'raylik. Mazkur frazeologizm «kutilmagan, tushunib bo'lmaydigan narsa yoki hodisadan o'ta darajada ta'sirlanib, taajjublanmoq» bo'lsa, [*hayron bo'lmoq*] leksemasi «kutilmagan, tushunib bo'lmaydigan narsa yoki hodisadan ta'sirlanmoq» sememasiga ega. Har ikkala ma'noda ham kishi ichki ruhiy holati (denotat) aks etgan. Biroq frazeologizm ma'nosida «o'ta darajada» va «so'zlashuv uslubiga xos», «bo'yoqdor» semalariga egaligi bilan «hayron bo'lmoq» leksemasidan farqlanadi. Demak, frazeologizmlarda, ko'pincha, ifoda semalarida obrazlilik, bo'yoqdorlik bo'rtib turadi. Umuman olganda, frazeologik ma'no torroq va muayyanroq, leksema ma'nosi esa unga nisbatan kengroq va mavhumroq bo'ladi. Masalan, [*hayron bo'lmoq*] leksemasi umumuslubiy va bo'yoqsizdir. Shuning o'ziyoq uning barcha uslublarda qo'llanish imkoniga egaligini va uni osongina turli «bo'yoqlar» bilan ishlatish mumkinligini ko'rsatadi.

Ko'rinadiki, frazeologizm va leksemalarni bir narsa yoki hodisani atashsada, (atash sememalari bir xil bo'lsa-da), ifoda bo'yoqlari bilan keskin farqlanib turadi (ya'ni ifoda semalari turlichadir).

Frazeologizmlar birdan ortiq so'zdan tashkil topadi. Biroq ularning ma'nosi tashkil etuvchi ma'nolarining oddiy yig'indisi emas. Masalan, [*qo'yniga qo'l solmoq*] frazeologizmining ma'nosi [*qo'yin*], [*qo'l*], [*solmoq*] leksemalari ma'nolari sintezi yoki qo'shiluvchi emas. Frazeologizmlar ma'nosi tashkil etuvchi so'zlar to'la yoki qisman ko'chma ma'noda ishlatilishi natijasida hosil bo'ladi. Masalan, birovning fikrini bilishga urinish harakati uning qo'ynini titkilab, nimasi borligini bilishga intilish harakatiga o'xshaydi. Natijada, qo'yniga qo'l solmoq erkin birikmasi o'zidan anglashilgan mazmunga o'xshash bo'lgan boshqa bir mazmunni ifodalashga ixtisoslashadi va qurilma frazeologizmga aylanadi. Yoki kishi qo'ltiqlab ketayotgan tarvuzini tushirib yuborsa, qanday ahvolga tushadi?

Biror narsadan ruhiy tushkunlikka tushgan odamning holati shunga monandir va natijada erkin birikma frazeologizm mohiyatiga ega bo'ladi. Bu esa frazeologik ma'noning mantiqiyligidan dalolat beradi.

Frazeologizm tartibidagi ayrim so'zning ko'chma ma'noda, boshqalarining o'z ma'nosida qo'llanilishi natijasida ham vujudga kelishi mumkin. Masalan, *aqlini yemoq, ko'zini bo'yamoq, ko'zi-ko'ziga tushdi, og'zi qulog'ida* frazeologizmlarida aql, ko'z, og'iz so'zlari o'z ma'nosida yemoq, bo'yamoq, tushmoq, qulog'ida so'zlari ko'chma ma'nodadir.

Ba'zan harakat-holatning natijasini ifodalovchi qurilmalar frazeologizmga aylanadi. Masalan, kishi afsuslanishi natijasida barmog'ini tishlab qolishi mumkin. Shuning uchun barmog'ini tishlab qolmoq qurilmasi frazeologik qiymat kasb etgan. *Tishni-tishga qo'ymoq, tepa sochi tikka bo'lmoq, labiga uchug toshmoq* iboralar ham shular jumlasidandir.

Ayrim frazeologizmlar turli diniy aqidalar, tushunchalar, rivoyatlar asosida ham shakllanadi: 1. *Uning eriga mening ko'zim tekkan emish* (I.Rahim.) 2. *Hammani qo'yib, sizning soldat o'g'lingizga tegaman deb ko'zim uchib turibdimi?* (M.Muhamedov). 3. *«Jabrdiyda»ning ham, guvohlarining ham dumi xurjunda gaplari shunday savollar berilishini talab etardi.* (M. Ismoiliiy)

Frazeologizmlar, asosan, bir ma'nolidir. Ammo polisemantiklik frazeologizmlarda ham uchrab turadi. Masalan, *aqli yetadi* frazeologizmi «idrok qilmoq», «ishonch hosil qilmoq» ma'nosiga, *bo'yniga qo'ymoq* iborasi 3 ta - «aybni birovga to'nkamoq», «isbotlab e'tirof qildirmoq», «biror ishni bajarishni birovning zimmasiga yuklamoq» ma'nolariga, *qo'lga olmoq* iborasi esa 4 ta- «o'z ixtiyoriga o'tkazmoq», «qo'qqisdan hujum qilib bosib olmoq», «qamash maqsadida tutmoq», «biror yo'l bilan o'z xohishiga bo'ysunadigan qilmoq» ma'nolariga ega.

Frazeologik polisemiyada barcha ma'nolar ko'chma bo'lganligi bois, ularni bosh va hosila ma'nolarga ajratish qiyin.

Frazeologizmlarda semantik munosabatlar. Leksikada bo'lgani kabi frazeologiyada ham lisoniy-semantik munosabatlar amal qiladi.

Frazeologik sinonimiya. Ma'nodoshlik hodisasi frazeologizmlarda ham amal qiladi. Frazeologizmlarning ma'nodoshlik paradigmasida birliklar ifoda semalari darajasiga ko'ra farqlanadi: *yaxshi ko'rmoq-ko'ngil bermoq, yer bilan yakson qilmoq-kulini ko'kka sovurmoq, ipidan ignasigacha, miridan sirigacha, qilidan quyrug'igacha* va h. Ma'nodosh frazeologizmlarning atash semalari bir xil bo'ladi. Masalan, *ipidan ignasiga-miridan sirigacha, qilidan quyrug'igacha* kabi iboralarida «butun tafsilotlari bilan» atash semasi umumiydir. Ammo ular uslubiy xoslanganlik va bo'yoqdorlik darajasini ifodalovchi semalari bilan farqlanadi.

Sinonim frazeologizmlarni frazeologik variantlardan farqlash lozim. Sinonim iboralarida ayni bir so'z bir xil bo'lishi mumkin. Lekin qolgan so'zlar sinonim leksemalarning ko'rinishlari bo'lmasligi lozim. *Jonini hovuchlab* va *yuragini hovuchlab* iboralarida bir xil so'z mavjud. Ammo jon va yurak so'zlari sinonim leksemalar ko'rinishi emas. *Ko'ngliga tugmoq* va *yuragiga tugmoq* iborolari frazeologik variantlardir.

Frazeologik antonimiya. Zid ma'noli antonimlar bir-biriga teskari tushunchalarni ifodalaydi. Misollar: *ko'ngli joyiga tushdi-yuragiga g'ulg'ula tushdi, qoni qaynadi-og'zi qulog'iga yetdi*.

Frazeologik omonimiya. Frazeologizmlar omonimik munosabatda ham bo'lishi mumkin. Misollar: *so'z bermoq I, so'z bermoq II, boshga ko'tarmoq I, boshga ko'tarmoq II, qo'lga ko'tarmoq I, qo'lga ko'tarmoq II*.

Frazeologizmlar nutqning ta'sirchan va bo'yoqdor bo'lishini ta'minlaydi. Shu sababdan frazeologizmlarda uslubiy-funksional xossalar leksik birliklarga qaraganda ham keng: Ko'zining paxtasi chiqmoq, yuragi qon bo'lmoq, ichini it tirnamoq kabi frazeologizmlarda uslubiy bo'yoq kuchli. Ularni ikki yo'nalishga bo'lish mumkin:

- ijobiy bo'yoqdorlikka ega bo'lgan frazeologizmlar: boshini silamoq, tillaridan bol tommoq, ko'zi yashnamoq;

- salbiy: uyiga o't yoqmoq, to'ng'iz qopmoq, yer tishlamoq.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, frazeologizmlardagi darajalanish, giponimiya, funktsionimiya, ierarxionimiya kabi semantik munosabatlar o'z tadqiqotlarini kutmoqda. Shuningdek, frazeologizmlarning gender xususiyatlarini chuqurroq tadqiq qilish ham tilshunoslar oldida turgan muhim vazifalardan biri sanaladi.

2.2 Frazelogizmlarning uslubiy xususiyatlari va iboralarda gender stereotiplarining aks etishi

Frazelogizmlarning semantik-grammatik xususiyatlarini o'rganish qanchalik muhim bo'lsa, ularning qanday maqsad zaminida barqaror nutqiy figura sifatida qo'llanishi va qanday stilistik maqsadlar uchun xoslanganligini o'rganish ham katta ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir²¹.

Bugungi kunda frazeologizmlarni har tomonlama tadqiq etish dolzarblik kasb etadi. Jumladan, frazeologik birliklarning gender tahlili o'z tadqiqini kutayotgan masalalardan biridir. Iboralarda gender stereotiplari bevosita yoki bilvosita aks etishi mumkin. Gender tilshunosligining asosiy tushunchalaridan biri gender stereotiplari atamasi hisoblanadi. Gender stereotiplari – bu ayol yoki erkakka xos barcha xususiyatlar tizimidir.

O'zbek tiliga xos bo'lgan bunday qoliplar yoki kishilarni badiiy va nazmiy asarlar matnini o'rganib, ikki asosiy turga ajratib, tahlil qilishni maqsadga muvofiq deb topdik:

1. Tashqi ko'rinish bilan bog'liq gender stereotiplari.
2. Xarakter xususiyati bilan bog'liq gender stereotiplari.

Biz quyida tahlil qilmoqchi bo'lgan iboralarimizda insonni tashqi ko'rinishi yoki xarakter xususiyati orqali jinsda farqlovchi bir qator nutqiy birliklar, formulalar mavjud bo'lishi mumkin.

Shuningdek, biz frazeologizmlarda uchraydigan gender stereotiplarni uch turga ajratib ko'rib chiqamiz:

1. Erkaklarga xos gender stereotiplar.
2. Ayollarga xos gender stereotiplar.
3. Har ikki turga xos gender stereotiplar.

²¹ Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. – Тошкент: Фан, 1983. – 39 б.

Shuni ta'kidlash lozimki, hayotdagi har qanday epizodik holatlar ham iboralarda aks ettirilmaydi, balki ijodkorda kuchli taassurot qoldirgan nozik tuyg'ular uyg'ota olgan, ko'pchilik uchun ibratli, ta'sirchan voqelik uchun ibratli, ta'sirchan voqealargina ularning yaratilishiga olib keladi.

Voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko'zi o'ngida aniq va to'la gavdalandirishda frazeologik iboralarning o'рни, ahamiyati beqiyosdir. Iboralar hayotdagi voqea-hodisalarni kuzatish, jamiyatdagi maqbul va nomaqbul harakat-holatlarni baholash, turmush tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning o'ziga xos obrazli ifodalaridir. Yozuvchi, odatda, tasvir maqsadiga muvofiq iboralarni tanlab qo'llash bilangina kifoyalanib qolmaydir, balki qahramonlar tabiati, ruhiy holati, hayot tarziga moslab o'zgartiradi va qayta ishlaydi. Bunda yozuvchining imkoniyat sifatida mavjud bo'lgan til birliklaridan foydalanish mahorati ham namoyon bo'ladi.

Iboralar insonning tashqi ko'rinishidagi ro'y bergan fiznobiologik holatlar vositasida, uning ichki dunyosidagi ruhiy kechinmalarning isteoraviy obrazni badiiy ifodalaydi. Bunday holatni tasvirlash har qanday odamni qo'lidan kelavermaydi. Buning uchun ijodkordan tug'ma iste'dod, zukkolik, xotirasida vaziyatni ilg'ab olish, so'zga chechanlik va ziyraklik talab etiladi. Ana shunday noyob fazilatlar sohibi sifatida biz O'zbekiston xalq shoiri Habib Sa'dullani e'tirof etishimiz mumkin.

Habib Sa'dulla xalqona iboralarni, dialektizmlarni, oddiy, ya'ni poetik leksikaga xos bo'lmagan so'zlarni ham she'riy nutqqa olib kirgan va ularga badiiy, uslubiy vazifa yuklagan. Shunga ko'ra ham shoir misralaridagi iboralar o'zining majoziyliги, isteoraviyлиги va yaratilish jarayonida voqealikka chambarchas bog'liqligi ya'ni, "quyma obraz"liligi bilan ajralib turadi. Ularni o'z o'rnida, gender xususiyatlariga ko'ra ham farqlash mumkin.

Masalan,

Xatlaringda sog'inchingni etsang izhor,

Yo'llaringda *ko'zing to'rtdir*, bu menga ayon.

Yolg'izingni olisda deb o'ylama zinhor,

Men har nafas yoningdaman aziz onajon! (II, 31)

Mazkur parchada qo'llangan “ko'zi to'rt bo'lmoq” iborasi “sog'ichni”, “intizorlikni” umuman “kutishni” ifodalaydi. Shoir ushbu iborani qo'llash orqali onaning farzandi bilan diydorlashmoqqa bo'lgan istagini ne chog'li kuchli va ortiq ekanligini obrazli tasvirlashga erishgan. Shuningdek, intizorlik, mushtoqlik ko'proq ayol-qizlarga xos bo'lsada, mazkur ibora har ikkala jins vakillariga ham taalluqlidir.

Ayrim iboralar faqatgina insondagi fizibilogik va ruhiy holatlarni ifodalab qolmay, ba'zida hayotni uzoq vaqt kuzatish, tahlil qilishning xulosalarini ham ifodalab ko'rsatadi. Bu jihati bilan iboralar maqolga o'xshab ketadi. Buni quyidagi misol orqali ko'rish mumkin:

Agar umring bo'yi yig'ding

Chekib zahmat zaru - zumrad,

Ko'rinmas misli bir garding

Boshing yostiqqa yetganda.

(II, 11)

Mazkur parchada qo'llangan “Boshi yostiqqa yetmoq” iborasi, xastalikni, betoblikni, umuman “og'ir dardga chalinish” kabi ma'nolarni anglatadi. Shoir ushbu ibora orqali, umr bo'yi zahmat chekib yig'ilgan boylik agar, inson xasta bo'lib boshi yostiqqa yetsa ko'ziga ko'rinmasligi, ko'ngliga sig'masligi kabi aforistik ma'nolarni ifodalaydi. Ushbu misolda gender stereotiplari yaqqol ko'zga tashlanmaydi.

Ayrim frazeologizmlar tarkibidagi so'zlar umumlashgan ko'chma ma'no asosida qurilganligi kuzatiladi, ya'ni ular ifodalaydigan ma'no zaminida metaforik asos mavjud:

Dasti kalta edi,

Bir kun odamlar

O'zimizning odam, deya siylashdi.

Unga taqdirlarin inonib, magar
Ezgu niyat bilan rahbar saylashdi.

(I, 308)

Mazkur parchada qo'llangan "dasti kalta" iborasi, "qo'li kalta" iborasiga sinonim tarzda shoir tomonidan ijod qilingan bo'lib, lug'aviy jihatdan "nochor odam" ma'nosini anglatadi. Ushbu ibora zamiridagi metaforik asos esa, ma'noni ekspressiv-emotsionalligini oshirishga xizmat qilgan.

Shoir she'riyatidagi iboralarni qo'llanishi jihatdan quyidagicha izohlash mumkin:

- iboradagi biror so'z ma'nodosh leksema bilan almashtirilgan.

Masalan.

Unutdi, berilgan edi uzun qo'l
Dasti kaltalarning boshin silashga.
Bosh silash qayoqda? Uzun qo'l nuqul
Boshlar uzra o'ynab tegardi g'ashga

(I, 308)

Ikkinchi misradagi *dasti kalta* iborasiga diqqat qilinsa, u "qo'li kalta"²² iborasining sinonimik o'zgartirilgan varianti ekanligini kuzatish mumkin. Sinonimik o'zgartirish natijasida darajalanish, ya'ni ma'noviy shakldoshlik yuzaga kelgan: *dasti kalta* iborasida *qo'li kalta* bo'lmoqqa nisbatan fikr kuchliroq ifodalangan bo'lsada, aslida bu ikki iboraning ma'no semasi, mazmunan bitta tushunchani ya'ni, "nochor odam" ma'nosini anglatadi. Mazkur ibora esa o'zbek xalqi an'analariga ko'ra ko'proq oila boshlig'i - erkak kishiga nisbatan ko'proq qo'llansada, u har ikkala jins vakillariga birdek xos.

Shu bilan birga, iboraga ma'nosini saqlagan holda uni shaklan kengaytirish holatlari ham mavjud:

Itmas, sen xursang bas, to'xtaydi karvon,
Dimog'ingga yetmas hech daroz narvon.

²² Раҳматуллаев III. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 302 б.

Cho'ntakdan bir umr uzilmas chervon,
Tog'alaring bo'lsa yuqoriroqda.

(I, 320)

Mazkur parchada “*dimog'i ko'tarilgan*”²³ iborasini “*dimog'ingga yetmas hech daroz narvon*” sifatida shaklan kengaytirilgan holatda qo'llanilganligini kuzatamiz. Shuningdek, ushbu iborani “burni ko'tarilgan” kabi sinonimik varianti ham mavjud bo'lib, har uchchala ibora garchi, grammatik va leksik jihatdan bir xil bo'lmasada, ular anglatadigan lug'aviy ma'no bitta ya'ni, kibru havoga berilgan, boyligi yoki mansabiga berilib, oddiy insonlarni nazar-pisand qilmay, gerdayib yuradigan inson ma'nosini ifodalaydi. Tashqi ko'rinishga ishora etilgan mazkur misol ham dag'allikni o'zida aks ettirsada, unda aynan bitta jins vakiliga xoslikni talqin etib bo'lmaydi. Shu sabab *dimog'i ko'tarilgan* iborasi har ikkala jinsga ham mos bo'lishi mumkin.

Shu bilan birga, misralarda tilimizdagi mavjud iboralarni hech qanday leksik o'zgarishsiz, aynan qo'llangan ko'rinishlari ham mavjud:

Uni o'zi tug'ib,
So'ng o'z kashfidan
Yoqa ushlab qolmish tabiat-ona.
Bitta yurak iqra topmishdi maskan:
Bir shohu
Bir shoir
Va bir devona

(I, 122)

Ushbu parchada shoir, ona tabiatni jonli lavhalarda chizilar ekan, oshiqlar lavhalarda sultoni bo'lmish Mashrabni o'zi kashf qilib, bu kashfidan nihoyat darajada hayratda qolganligini, ajablanishi kabi holatlarni “yoqa (si)ni ushlamoq” iborasi orqali ta'sirchan tarzda ifodalashga erishgan. Ushbu iborada ham gender stereotiplar har ikki turga mansub.

²³ Раҳматуллаев III. Ўзбек тилининг изоҳли фразеология луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 72 б.

Yoki:

Yana huzuringga keldim *egib bosh*
Xizimating oqlay deb, g'ayratga to'lib,
Yetti yosh boladay ma'sum va yuvosh,
Va o'n yetti yashar o't oshiq bo'lib.

(I, 45)

Mazkur misrada qo'llangan “bosh egmoq” iborasi lirik qahramonning insoniyat, xalq oldidagi qarzdorlik hissi tufayli bosh egishi, ya'ni o'z xalqiga nisbatan hurmat – ehtirom ko'rsatishi ma'nosida keltirilgan²⁴. Bu o'rinda lirik qahramonning xizmatga shay bo'lib, bosh egib turishi yetti yashar “ma'sum va yuvosh” bolaga hamda o'n yetti yoshli “o't oshiq”ga qiyos qilinadi.

“Quyidagi misrada qo'llangan “bosh egmoq” iborasida esa yuqoridagi kabi qarzdorlik hissi sezilmaydi, balki chuqur ehtirom ma'nosi ufurib turadi:

Qo'llaring ko'ksingda doim,
Bosh egik, qadding bukik,
Senga bunday xush tavoze
Oliy insonlik sharaf

Garchand bir xil ibora qo'llangan bo'lsada, she'riy misradagi boshning egilishi nafaqat hurmat, balki takalluf ko'rsatish ma'nosini ham anglatadi. Mazkur ibora ham yuqorida tahlil etganimiz Habib Sa'dulla she'rlaridagi boshqa frazeologik birliklar kabi maxsus xoslanmagan.

Frazeologizmlarning go'zal namunalari Ahmad Yassaviyning “Devoni hikmat” asarida ham o'z aksini topgan. Hikmatlarning she'riy shakldaligi uning xalqchil va sevimli bo'lishiga sabab bo'lgan va u davrlar osha xalqimiz tomonidan sevib o'qilgan. Ahmad Yassaviy o'z hikmatlarida dunyoqarashi, ya'ni islom dini, kalom falsafasi va tasavvuf bilan bog'liq qarashlarini ifodalagan. Hikmatlar tili xalq tiliga monand bo'lib, unda jonli tilda faol qo'llanuvchi iboralar ko'p ishlatilgan. Iboralar asar tilini sodda, ravon va obrazli bo'lishiga xizmat qilgan.

²⁴ - Илм уммонидан қатралап: (илмий мақолалар тўплами). – Наманган, 2009. – 19 б.

Masalan:

So'zni aytdim har kim bo'lsa diydor talab,
Jonni jonga *payvand qilib*, rangni ulab,
G'arib-faqir, yetimlarning *ko'nglin ovlab*,
Ko'ngli qattiq xaloyiqdin qochdim mano.

To'rtlikdan Yassaviyning "g'arib, faqir, yetimlar"ga bo'lgan munosabatini ko'rish mumkin. Tabiiyki, savol tug'iladi. Ahmad Yasavviy "g'arib, faqir, yetim" deganda kimlarni nazarda tutadi?

G'arib – bu kimsasiz, g'urbatdagi kishi, yurtidan ajralgan musofir. So'fiylikda g'ariblik – g'urbatda, ya'ni dunyo-yu – dunda yashashdir. G'aribga asl yurt - Olloh dargohi. Tariqatning to'rtinchi maqomi faqr va shu maqomga mansub kishi faqirdir. Faqirning Ollohdan boshqaga muhtojligi bo'lmaydi va tavakkal e'tiqodi bilan yashaydi.

Ota yoki onadan ajralish yetimlikdir. So'fiylikda esa har bir odam yetim sanaladi. Olloh yagona yaratguvchidir. Yassaviyning bunday kishilarga munosabati "*ko'nglin ovla*"moq iborasi bilan ifodalangan. Undan "yaxshilik qilmoq; hursand qilmoq va shu bilan birga o'ziga xayrixoh qil"moq kabi ma'nolar anglashiladi. Yassaviy fikricha, g'arib, faqir, yetimlarga doimo yaxshilik qilish, mehr ko'rsatish, ularni xursand qilish; rahm – shavqati yo'q, bemehr kishilardan esa yiroq bo'lish lozim. Quyidagi to'rtlik ham shu fikrga misol bo'la oladi:

Oqil ersang g'ariblarning *ko'nglin ovla*,
Mustafodek elni kezib yetim kovla.
Dunyoparast nojinslardan *bo'yin tovla*,
Bo'yin tovlab, daryo bo'lib toshdim mano.

Bunda "*bo'yin tovla*" moq iborasi ikki xil ma'noda qo'llangan: 1) itoat qilmaslik; 2) voz kechmoq, qutulmoq. "Daryo bo'lib toshmoq" – fanolik sharofati. Davlatsevar, molparast nokaslarga bo'yin egmaslikning asosiy sharti fanolikdir. Inson umri qisqa va o'tkinchiligi azaldan ayon. Demak, ikkinchi iborada faqatgina Ollohgacha itoat qilmoq ma'nosini anglashiladi.

Hikmatlarda qo'llangan iboralarning aksariyati hozirgi o'zbek tilida ham ishlatiladi. Ularning bir qismi sal o'zgargan holda ishlatilsa, ba'zilarining esa ma'nosini tushunish qiyin. Ushbu xususiyatlarga ko'ra asardagi iboralarni quyidagicha guruhlariga ajratishimiz mumkin:

1. Hozirgi o'zbek tilida ham ishlatiladigan iboralar:

Xudovando, meni solg'il o'z yo'linggo,
Nafs ilgida xarob ado bo'ldum mano.
Fisqu fujur to'lib – toshib, haddin oshti,
G'arqob bo'lib, isyon ichra qoldim mano.

Hozirgi o'zbek tilida “*yo'lga solmoq*” iborasi yaxshi ishlar tomon yo'naltirmoq; ketish tomonga to'g'rilab jo'natmoq, yurg'izmoq; to'g'ri yo'lga qaytarmoq; manfaatdor bo'lgan holda biror ishga rag'batlantirmoq; faoliyatini yaxshilamoq” kabi ma'nolarni ifodalash uchun ishlatiladi. Bu ibora to'rtlikda “Meni o'zing buyurgan ishlarni ado etishga yo'naltir” degan ma'noda qo'llangan. Haddan oshmoq “o'ziga ortiqcha erk bermoq, ortiq darajada kuchayib, zo'rayib ketmoq” ma'nolarini anglatadi. Hadning lug'aviy ma'nosi chegaradir.

Ishq yo'lida kecha – kunduz yig'lag'onlar,
Jondin kechib belin mahkam bog'lag'onlar,
Xizmat qilib haq sirini anglag'onlar,
Tun uyquni harom qilib nolon bo'lur.

“*Jondan kechmoq*” har qanday og'ir shartni, talabni bajarishga tayyor bo'lmoq, “*belni mahkam bog'lamoq*” – shaylanmoq, o'tlanmoq; astoydil kirishmoq, ahd qilmoq kabi ma'nolarni anglatadi.

2. Hozirda biroz o'zgargan holda ishlatiladigan iboralar:

Xurmo berib, boshim silab nazar qildi,
Bir fursatda uqbo sari safar qildi,
Alvido, deb bu olamdan guzar qildi,
Maktab borib, qaynab, to'lib – toshdim mano.

Uqbo – asli “uqabo” bo’lib baland, tepa, mashaqqatli yuksaklik ma’nolarini bildiradi. Bu yerda jannat ma’nosida ishlatilgan. “uqbo sari safar qilmoq” iborasi hozirgi o’zbek tilida “jannatga yo’l olmoq” tarzida, “bu olamdan guzar qilmoq” iborasi “bu dunyodan o’tmoq” tarzida ishlatiladi .

Yoki: To’qqizimda to’lg’onmadim to’g’ri yo’lg’a,

Tabarruk deb olib yurdi qo’ldan – qo’lga.

“To’g’ri yo’lg’a to’lg’onmoq” iborasi “to’g’ri yo’lga kirmoq” tarzida ishlatiladi.

Yoki: Oltmish ikki yoshda Olloh partav soldi,

Boshdan – oyoq g’aflatlarim raho qildi.

“Partav solmoq” – nazar solmoq kabi ishlatiladi, “g’aflatlarim raho qildi” ya’ni, g’aflatlarim ketdi.

3. Hozir ishlatilmasa ham, ma’nosi tushunarli bo’lgan iboralar:

Xushlamoydur olimlar bizni oyg’on turkini,

Oriflardin eshitsang, *ochar ko’ngul mulkini*.

Oyat, hadis ma’nosi, turki bo’lsa muvofiq,

Ma’nisiga yetganlar *yerga qo’yar bo’rkini*.

To’rtlikdagi “*ochar ko’ngil mulkini*” iborasi “buning sirini aytadi” ma’nosida, “*erga qo’yar bo’rkini*” iborasi “do’ppisini yerga qo’yadi” ya’ni o’ylanib qoladi ma’nosida ishlatilgan.

O’ttiz sakkiz yoshga kirdim, umrim o’tdi,

Yig’lamaymu *o’lar vaqtim, yovuq yetdi*.

Ajal kelib paymonasin menga tutdi,

Bilmay qoldim umrim oxir bo’ldi do’stlar.

“*O’lar vaqtim yovuq yetdi*” ya’ni – o’limim yaqinlashib qoldi, “ajal paymonasin tutdi” ya’ni “ajal sharobi” quyilgan qadahni menga tutdi.

Yoki: Qirq yoshimda muhabbatning bozorida,

Yaqom yertib, yig’lab yurdim gulzorida.

“*Yaqo yirtib yig’la*”moq – shu darajada ko’p va tinimsiz yig’lashki, ko’z yoshlarini artish uchun hatto yaqosini ham yirtmoq yoki alamdanda to’lib ketgan vujudni libosga sig’may qolishi.

4. Hozirda ishlatilmaydigan va ma’nosini ham tushunish qiyin bo’lgan iboralar:

Vo darig’o muhabbatni jomin ichmay,
Ahli ayol, xonumondin tugal kechmay,
Jurmi isyon girihlarin munda yechmay,
Shayton g’olib jon berarda shoshdim mano.

“*Jurmi isyon girihlarin yechmoq*” xatolarni tuzatmoq Ollohdan gunohlarini kechirishni so’ramoq.

Yoki: Shayxman debon da’vo qilib yo’lg’a qoldim,
Fashu dastor puchak pulg’a sotib keldim.
Nafsu havo tug’yon qildi, horib qoldim,
Bedam bo’lib yer ostig’a kirdim mano.

“*Fashu dastor puchak pulga sot*”moq iborasi dunyoni, uning noz-ne’matlarini hech narsaga arzimaydi deb bilmoq, puchak pulga teng qilmoq.

Yassaviy hikmatlarini tahlil qilish jarayonida shunga ishonch hosil qildikki, uning hech bir hikmati iboralardan xoli emas. *Qon yutmoq, jonni jonga payvand qilmoq, yo’ldan urmoq, boshin yanchmoq, bel bog’lamoq, jonni olmoq, bino qilmoq, yerga urmoq, jonni fido qilmoq, ko’ngil bermoq, jondan kechmoq, yo’ldan ozmoq, boshi qotmoq, ko’zga ilmoq, jondan to’ymoq, jon achchig’in zahrin totmoq, aro yo’lda qolmoq* kabi iboralar hikmatlar ta’sirchanligini oshirgan. Shuningdek, ushbu iboralarda genderga xos belgilar yaqqol ko’zga tashlanmasada, o’sha davr va muhitni inobatga olgan holda, Yassaviy hikmatlarida qo’llangan iboralarda erkaklarga xos gender stereotiplarini sezish mumkin. Sababi dinga doir ko’plab mavzularda erkak kishiga nisbat berish kuzatiladi. Shuningdek, o’sha davr taqazosiga ko’ra ayollar madhi deyarli ko’proq g’azallarda qo’llaniladi. Pand-nasihat va tasavvuf yo’lidagi badiiy asarlarda qo’llangan frazeologik birliklarda esa

erkaklarga xos gender belgilarni uchratamiz. Lekin ularda har ikkala jins vakillari nutqida teng qo'llanuvchi iboralar ham salmoqli o'ringa ega.

Xulosa qiladigan bo'lsak, yuqoridagi har ikki ijodkorning nazmiy asarlaridagi frazeologik birliklarning qo'llanishida ham o'ziga xoslikni ko'rish mumkin. Bu esa o'z o'rnida, iboralarning tadqiqi tilshunoslik uchun hali ko'plab ilmiy yangiliklar taqdim etishi mumkinligini asoslaydi. Shuningdek, frazeologizmlarning gender tadqiqi muammosi bugungi o'zbek lingvistlari oldida turgan muhim masalalardan biri sanaladi.

Bob bo'yicha xulosalar

Biz mazkur “Frazelogizmlarning gender tadqiqi muammolari” deb nomlangan II bob bo'yicha fikrlarimizni umumlashtirgan holda quyidagi xulosalarga keldik:

1. O'zbek tilida alohida o'ringa ega bo'lgan iboralar bu til mazmunini yanada boyituvchi ma'naviy xazinadir. O'zbekistonda maqol, naql, iboralar ustida ilmiy-ijodiy ishlar olib borilgan, kitob nashr ettirgan ziyolilarning asarlari bu boradagi sezilarli yutuqlardir.
2. Frazelogizmlarning semantik-grammatik xususiyatlarini o'rganish qanchalik muhim bo'lsa, ularning qanday maqsad zaminida barqaror nutqiy figura sifatida qo'llanishi va qanday stilistik maqsadlar uchun xoslanganligini o'rganish ham katta ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir.
3. Iboralar ahamiyati va qo'llanishi jihatidan, odatda, so'zga teng keladi. Iboralar ko'proq so'zlashuv nutqida va badiiy asarlarda ishlatiladi. Ulardan unumli foydalanish nutqning ta'sirchanligini oshiradi.
4. Frazelogizmlar tilshunosligimizda muayyan so'z turkumlari bo'yicha tasnif qilinmagan va grammatik xususiyatlari yetarli darajada o'rganilmagan.
5. Frazelogizmlardagi darajalanish, giponimiya, funktsionimiya, ierarxionimiya kabi semantik munosabatlar o'z tadqiqotlarini kutmoqda. Shuningdek, frazeologizmlarning gender xususiyatlarini chuqurroq tadqiq qilish ham tilshunoslar oldida turgan muhim vazifalardan biri sanaladi.
6. O'zbek xalqiga xos iboralar hozirgi o'zbek tilida ham ishlatiladigan iboralar, hozirda biroz o'zgargan holda ishlatiladigan iboralar, hozir ishlatilmasa ham, ma'nosi tushunarli bo'lgan iboralar, hozirda ishlatilmaydigan va ma'nosini ham tushunish qiyin bo'lgan iboralar kabi turlarga bo'linadi.

7. Bugungi kunda frazeologizmlarni har tomonlama tadqiq etish dolzarblik kasb etadi. Jumladan, frazeologik birliklarning gender tahlili o'z tadqiqini kutayotgan masalalardan biridir.
8. Frazeologizmlarda uchraydigan gender stereotiplarni uch turga ajratish mumkin:
 - 1) Erkaklarga xos gender stereotiplar.
 - 2) Ayollarga xos gender stereotiplar.
 - 3) Har ikki turga xos gender stereotiplar.

III BOB. FRAZELOGIZMLARNING GENDER XUSUSIYATLARI

3.1. Frazelogizmlarda gender lingvistikasiga oid jihatlarning o'ziga xosligi (M.Yusuf ijodi misolida)

Ma'lum badiiy asarni bir tildan ikkinchi bir tilga tarjima qilganda, barqaror so'zlar bog'lanmasini aynan tarjima qilish mumkin bo'lmay qolgan. Bunda o'sha tillarda mavjud bo'lgan frazeologik iboralar o'rganila boshlangan. Shunday qilib, frazeologiya birinchi marta adabiyotshunoslik predmeti sifatida o'rganilgan. Keyinchalik, lug'atlarda so'z ma'nolari izohlangan. Shundan so'ng frazeologik iboralar ma'nosi, ularning grammatik qurilishi tilshunoslik fanida ham tekshirila boshlangan. Hozirgi davrda frazeologiya masalalari ham tilshunoslik, ham adabiyotshunoslik sohalarida o'rganilmoqda.

Ma'lumki, frazeologiya – tilshunoslikning eng katta bo'limlaridan biri hisoblanib, hozirgi kunga qadar o'rganib kelinmoqda. Frazelogiya ma'lum bir tildagi barqaror so'zlar bog'lanmasi yoki frazeologik iboralar to'g'risida bahs yuritadi. Uni o'rganish tarixiga nazar tashlaganda, shu narsa ma'lum bo'ladiki, u dastlab adabiyotshunoslikda paydo bo'lgan.

Biz, yoshlarga, haqiqiy maktab vazifasini o'tagan sevimli shoirimiz Muhammad Yusufning ijod yo'lga nazar tashlaydigan bo'lsak, juda qisqa umr kechirgan bo'lishiga qaramay, undan chinakam, betakror ijodiy meros qolganligini, haqiqiy ma'nodagi barhayotlik, zavol bilmaslik uning ijodiga xos ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ijodiy faoliyatning atiga bir qirrasi bo'lgan frazeologizmlar va ulardan foydalanish haqida gap ketganda, o'zi ham frazeologizmlarning ajoyib namunalarini yaratgani haqida eslamay bo'lmaydi.

Frazelogik iboralar mahalliy dialekt va shevalarga tegishli bo'lishi, turli qarashlarni ifodalashi, kasb-hunarga va turmushning xilma-xil sohalariga doir bo'lishi mumkin. Bunday hollar frazeologik iboralarni stilistik nuqtai nazardan o'rganishga imkon beradi. Frazelogik iboralarga grammatik nuqtai nazardan

qaraganda, bunday iboralarning bir xili so'zga teng kelib, bir ma'noni anglatadi. Boshqa xillari so'z birikmasiga teng bo'ladi, ba'zilari esa gapga teng kelib, nisbiy tugal fikrni bildiradi. Mana shu xususiyatlariga ko'ra frazeologik iboralarni grammatik tomondan dastlab uchga bo'lish mumkin.

Fikrimizni asoslash uchun biz buni Muhammad Yusuf she'riyati misolida ko'rib chiqamiz.

1. Ayollar nutqida ham, erkaklar nutqida ham teng qo'llanuvchi **so'zga teng** kelgan frazeologik iboralar: Qo'li ochiq, mehri daryo, mushti qattiq, ko'ngli bo'sh.

Ko'ngli bo'sh - ko'ngilchan, rahmdil.

Ammo qalb tan olmas, u o'sha-o'sha,

Qarshimda boladek **dardin yoradi**.

(M.Yusuf. «Erka kiyik», 50-bet)

Dardini yormoq – aytmoq, tashvishga solib yurgan yashirin ish - uylarini o'ziga yaqin olib aytmoq.

Yulduz bo'lib turar balki ko'kda balqib,

Ko'lga cho'kib ketishi balki **ko'ngli yarim**.

(M.Yusuf. «Erka kiyik», 40-bet)

Ko'ngli yarim - xotirjamligini yo'qotgan.

Nomardlardan **yuzin burgan** elatsan,

Dor ostida kulib turgan elatsan.

(M.Yusuf. «Ulug'imsan, Vatanim!», 65-bet)

Yuzin burmoq – qaramaslik, qaramaslik uchun boshini boshqa tomonga burmoq.

2. **So'z birikmasiga teng** kelgan frazeologik iboralar:

Totuv yurtda tuproq o'zin tog' aylagay,

Bir-birini qo'llagan el kam bo'lmagay.

(M.Yusuf. «Ulug'imsan, Vatanim!»,15-,bet)

Bir-birini qo'llamoq - hamjihat bo'lmoq, yakdil bo'lmoq.

Meni bir o'y qiynaydi yomon,

Yurak yana o'ynaydi yomon.

(M.Yusuf .«Erka kiyik» ,48-bet)

Yuragi o'ynaydi - yurak urishi odatdagidan ko'ra tezlashdi va kuchaydi. Qalbi hayajonga to'ldi...

Bir boplay dedimu **tilimni tiydim**,

Mayli, odam qurib, shunga so'z deymi?

(M.Yusuf. «Ulug'imsan, Vatanim!», 15-b)

Tilini tiymoq - biror fikrni aytishdan saqlanmoq.

3. **Gapga teng** frazeologik iboralar:

Bosh bir kun tosh yostiqa yetar,

Ruh to'tisi tanni tark etar.

(M.Yusuf. «Erka kiyik», 41-bet)

Boshi yostiqa yetmoq - kasal bo'lib yotib qolmoq.

O'n gulidan bir guli ham ochilmay,

Umri xazon bo'lib ketgan o'g'lonlar.

(M.Yusuf. «Ulug'imsan, Vatanim!», 14-b)

O'n gulidan bir guli ham ochilmagan - Husn - jamoli endigina namoyon bo'la boshlamoq.

Pahlavon yigitcha, polvon yigitcha,

Dimog'i osmonni olg'on yigitcha.

(M.Yusuf .«Ulug'imsan, Vatanim!», 14-b)

Dimog'i osmonni olgan - kibr-havoli, kekkaygan, kalondimog'.

Kengashsangiz tor dunyolar keng bo'lardi,

Ergash **yoqa bo'lsa**, Shermat **yeng bo'lardi**.

(M.Yusuf. «Erka kiyik» ,43-bet)

Biri yoqa, biri yeng bo'lmoq - bir tan, bir jon bo'lmoq, yakdil, hamjihat bo'lmoq.

Bulardan tashqari uning lirikasida *xayol bosar, ko'ngli buzildi, ko'krak kerd, qovog'i osildi, boshini yedi, nam tortmoq, oq-qorani tanimoq, ko'ngilga siqinmoq, boshingni tik tut* kabi yuzlab frazeologizmlarni uchratishimiz mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, moxir so'z san'atkori Muhammad Yusuf frazeologizmlardan unumli foydalandi. Frazeologizmlardan foydalanish asosida misralarning badiiy-ligini, tasviriy ifoda kuchini oshirdi, mazmunni kengaytirdi. Uning tengsiz so'z san'atkori ekanligini tilimiz xazinasida mavjud bo'lgan frazeologizm imkoniyatlaridan mohirlik bilan foydalanganidan bilishimiz mumkin.

O'zbek xalqining o'ziga xos mentaliteti, tarixiy taraqqiyoti davrida erkaklar va ayollar munosabatining shakllanuviga doir bosib o'tilgan davriy bosqichlarning xilma-xilligi tilda genderga oid juda qiziqarli materiallar to'planishiga, ayollar va erkaklarning ham o'xshash, ham o'zaro izchil farqlanuvchi nutq odatining shakllanishiga olib keldi. Bu jihatdan olganda Muhammad Yusuf ijodi boy manba hisoblanadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, genderning o'ziga xos jihatlari aks etgan frazeologik birliklar nafaqat nasriy balki, nazmiy asarlarda ham keng va samarali qo'llab kelinmoqda. Bu jihatlar esa nutqimizni yanada boy va ta'sirchan bo'lishiga xizmat qiladi.

3.2. Tashqi ko`rinish bilan bog`liq gender stereotiplari aks etgan iboralar

Frazemalarning barcha turlaridan nutqning ta'sirli va obrazli bo'lishini ta'minlovchi uslubiy vositalar sifatida foydalaniladi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, frazeologizmlarda genderga xos stereotiplar tashqi ko'rinish bilan bog'liq holda ham aks etadi. Quyida aynan inson ta'na a'zolari bilan bog'liq iboralarni tahlil etamiz.

Ayollar nutqida ham, erkaklar nutqida ham teng qo'llanuvchi frazeologik birliklar:

Boshing toshdan bo'lsin. Umring uzun bo'lsin, boshingga tushgan mushkullar tumandek tarqab ketsin, boshing tog'dek, xarsangdek bu savdolarning barchasiga chidash, bardosh bersin, degani bu. Boshing toshdan bo'lsin iborasi qarg'ish iboralarga qarama-qarshi o'laroq olqish iborasi bo'lib, keksa bobo-buvi, ota-onaning yoshlarga, farzandlarga yaxshi niyatidir.

Boshga tushganni ko'z ko'rar. Yuqoridagi iborada aytilganidek, insonning murakkab hayot yo'lida uning boshiga ko'p ishlar, tashvishlar, mushkullar tushadi. Bularning barchasini yengib o'tish uchun bosh toshdek, metindek bardoshga to'la bo'lishi kerak. Boshga tushganni esa ko'z ko'radi, qalbing o'rtanadi, joning qiynaladi, yengib o'tishga majbursan.

Boshiga yetdi. O'z ma'nosi - ko'chaning, suvning boshiga yetish. Ko'chma ma'nosi biror odamning o'limiga sababchi bo'lishi. Boshqa birovning yo'ldan ozdirish, yomon ko'chaga kiritib yuborish. Qozonga yaqin yursang , qorasi yuqadi, deydi xalq. Yomonga yondashaverish axiyri bir kun yaxshining boshiga yetishi tayin. Shuning uchun xalq bu iborani ishlatadi. Muqobili: «boshini yeydi».

Boshi qotdi. Bosh sovqotishi, tik qotishi tabiiy. «Boshi qotdi» iborasining ma'nosi inson biror muammo oldida ma'lum xulosa, yechimga kelolmay ikkilanib, o'ylanib qolishi. Ataylab bosh qotirish, chuqur, atroflicha o'ylash uchun yaratilgan

ijodiy ishlar bosh qotirish deyiladi. «Boshi qotdi» iborasida salbiy, ijobiy ohang yo'q. U majhuldir.

Boshi osmonda. Odamning boshi tanasining tepasida bo'lishi ayon. Go'dak bola uchun uzun odamning boshi osmonda bo'lib ko'rinishi ham mumkin. Biroq «boshi osmonda» iborasining ko'chma ma'nosi talay-biror yutuq, xursandchilik, muvaffaqiyatdan quvonib, xursand yurgan kishining boshi osmonda bo'ladi. Institutga kirgan talaba shodligidan do'ppisini osmonga otishi mumkin. «Boshi osmonda» iborasini ba'zan, namuncha bosar-tusarini bilmay qopti, boshi osmondaku, degan ma'noda ham eshitib qolasiz. Bu endi boyagiday ijobiy ma'nodagi «boshi osmonda» dan keskin farq qiladi. Kesatiq, kinoya, nafratga yo'g'rilgan ohangi bor.

Peshonasi yarqiroq. Tepakal odamlarning peshonasi yarqiroq bo'ladi. Tuk, soch bo'lmaganidan suyakka yopishgan teri silliq, yarqiroq turadi. Ko'chma ma'noda «peshonasi yarqiroq» deganda, omadli, kelajagi porloq, istoqbolga, baxt-saodatga yor bo'luvchi odam ko'zda tutiladi.

Ko'pincha qobiliyatli, iste'dodli yoshlar to'g'risida xalq, «ko'z tegmasin shu bolam yo'ldan ozmay, urinmay-surinmay kamol topsa, buning peshonasi yarqiroq», deydi. Muqobili: «omadli chopgan», «tolei kulgan», «kelajagi porloq».

Odamning yuzi issiq. Yuzidan o'tolmadi. Bir ishni qilish, xulosa chiqarishda obro'li shaxsning ko'ngliga qarab istihola qilish, oqibatidan cho'chish, izzat. Yuzidan o'tolmaslik, ko'nglingda o'zingning mustaqil fikring bo'lgani holda do'sting, oilang, rahbaringning istagini ado etishing. Xalqning odobli-andishaliligini ko'rsatadi. Ko'ngilchanlikning salbiy oqibatlari ham bor.

Yuzi shuvit bo'ldi. Biror ishda bergan va'dasining ustidan chiqolmagan shaxs o'zga kishining oldida uyalib, hijolat bo'lib qoladi. Yuzi shuvitli (shivit-ukrop, subhidamda shabnamli bo'ladi), shabnamli, hijolatdan terlashi mumkin. Muqobili: «xijolat tortdi», «boshini ko'tarolmay qoldi» va hokazo.

Yuzi qattiq. Yuzining pardasi yo'q, yuziga charm qoplagan, yuzi yo'q iboralarining muqobili. Katta-kichikni, uyat-nomusni bilmaydigan, tarbiyasiz

odamlarga nisbatan aytiladi. Yuzi qattiqning ko'zi qattiq, beparda, besharm, behayo bo'ladi.

Yuzini yerga qaratdi. To'g'ri ma'noda: yerga qarash, yuzini yerga burish. Mohiyati ko'chma ma'nosida. Yuzini yerga qaratish ota-onani, aka-uka, qarindosh-urug'ni uyaltirib, oriyatini bukib, qattiq hijolat ostida qoldirish. Qizlar ota-onaning gapidan chiqib, o'zboshimchalik bilan yomon yo'lga kirsar, nomussizlansa, bu ibora aytiladi. Ba'zan kundalik hayotda birov ikkinchi shaxsning ishonchini oqlamasa, uni uyaltirib qo'ysa ham shu iborani ishlatadilar. Muqobili: «yuziga qarolmaslik».

Yuziga oyoq qo'ymoq. Bu ibora asosan ko'chma ma'noda qo'llaniladi. «Yuziga oyoq qo'ymoq» biror odamga nisbatan hurmat-e'tiborini saqlamaslik. Yaxshilik qilgan kishini unutib, unga qarshi ishga bosh qo'shish. Nomardlik, notantilik. Ibora aksariyat salbiy ma'no va ohangda qo'llaniladi.

Yuzi qora. Xalqda, so'rab borganing bir yuzi, bermaganning ikki yuzi qora, degan gap bor. Ma'nosi: birovga sarg'ayib biror narsa so'rash-yuzni qora qilish bilan barobardir. O'zida bo'la turib shu narsani bermagan, muhtoj odamning hojatini chiqarmagan kishining ikki yuzi ham qora deyishga loyiqdir. «Yuzi qora», «yuzi shuvit»ning muqobili bo'lib, birovning oldida insoniy, vijdoniy burchini bajarolmay qolgan yoki ataylab bajarmagan shaxslarga nisbatan qo'llanadi.

Yuzi yo'q. Bir odam siz bilan arzimagan masalada san-manga borib, qattiq janjallashib qoladi. Oradan bir ikki kun o'tmay ishi tushib qolgach, tag'in o'rtada hech gap o'rmaganday sizga yuzini solib kelaveradi. Shunday paytlarda «yuzi yo'q ekanku buning, kechagi gapi qaydayu bugungisi qayda», deysiz. Yuzi yo'qning muqobili «uyatsiz», «andishasiz», «beti bilan keti bir», «muttaham», «ikkiyuzlamachi», «beor» va hokazolar.

Ko'zini shamg'alat qilmoq. Birovni aldash. Unga nisbatan ko'zbo'yamachilik qilish. Aldam-qaldamlik, ko'ziga cho'p solish. Ko'zini shamg'alat qilmoq, kuppa-kunduzi, ko'ra-bila turib, hammaning oldida biror

g'ayri-axloqiy ishni chapdastlik bilan uddalash. Bajaruvchiga nisbatan tanqid, g'azab, nafrat, la'nat ifodasi, ohangi bor.

Ko'zining paxtasi chiqdi. Kishining jaholati qo'zib, g'azabi kelganda, baqirib-chaqiradi, so'kinadi, bilak kuchini ishga solish ham mumkin. Shunday paytda odamning ko'zi ola-kula bo'lib, «paxtasi chiqadi», ya'ni katta ochilganidan oqi to'la ko'rinib, paxtani eslatadi. «Ko'zining paxtasi chiqdi» iborasi egasiga nisbatan salbiy ohang, tanqid ma'nosini tashiydi. Muqobillari: «ko'zini ola-kula qildi», «ko'zning oqini ko'rsatdi», «ko'zi olaydi», «ko'zi qinidan chiqdi» va hokazo.

Ko'z ostiga olmoq. Bu ibora biror ishni bajarishni rejalashtirish, biror shaxsga nisbatan yaxshi yoki yomon munosabatda bo'lishni mo'ljallash holatlarini ifoda etadi. «Ko'z ostiga olmoq» yor tanlashda, safdosh, xizmatdosh, hamroh ajratishda qo'l keladi. Sinashta, oldindan nazarda tutilgan odam qo'yningizni puch yong'oqqa to'ldirmaydi. Aksariyat, sodiq odamingiz bo'lib qoladi. «Ko'z ostiga olmoq» iborasi nazarda tutish, ko'zda tutish, ko'ngilda saqlash iboralariga muqobildir. Teskarisi: ko'zdan qochirmoq, nazardan soqit qilmoq, xayoldan faromush (forig') qilmoq. Ko'zdan yo'qotib qo'ymoq.

Ko'zga ilmaydi. Mensimaydi, o'ziga teng ko'rmaydi, past nazar bilan qaraydi, bemehr ma'nolarini tashiydi. Ko'zga ilmaslik takabburlik, noxolislik, raqibga to'g'ri baho berolmaslik oqibatidir.

Quloq qoqmadi. Bir ishni, vazifani hech ikkilanmasdan, zudlik bilan bajarish. U yoq bu yoqqa tashlamaslik. Quloq qoqmadi-parvo qilmadi, ishni bajarmadi ma'nosida ham ishlatiladi.

Qulog'iga ildi. Ko'chma ma'noda aytilgan fikr, gap, maslahatni quloqqa olib, uni bajarish, amal qilish bilan bog'liq.

Qulog'idan kun ko'rinib qopti. Mutoyiba ibora. Yangi uylangan yigit chilladan, chimildiqdan chiqqan kunlari o'rtoqlari, kattalar hazillashib shu iborani qo'llaydilar. Bu bilan: «O'-ho', falonchining rosa kuchi-quvvati ketib, ozib-to'zib, hatto qulog'idan kun ko'rinib qopti-ya», degan hazil masxara, havas va xayrihoxlik

bildiriladi. Ikkinchi ma'nosida haqiqatan ham, og'ir xastalikka duchor bo'lgan, ozib-to'zib ketgan shaxsga nisbatan orqavorotdan bu ibora ishlatiladi.

Eshakning qulog'iga tanbur chertdimmi? Birovga jon kuydirib gap gapirsang, fikr uqtirsanng, maslahat bersangu, bu gaplar uning bu qulog'idan kirib unisidan chiqib ketayotganligi sezib qolsang, xuddi shu iborani ishlatasan kishi. Odatda muallimlar o'quvchilariga, ota-onalar bolalariga, ustozlar shogirdlariga shunday deydilar.

Uzunquloq gap yuribdi. Biror shaxs, voqea, hodisa to'g'risida gapirilganda, mana shunday «uzunquloq gap yuribdi», deb eshitilgan xabarni aytishadi. «Uzunquloq» deganda rost-yolg'onligini bilmayman, uzoqdan eshitilgan gap, degan ma'no anglashiladi. Uzunquloqning tag'in bir ma'nosi juftlik. Shubhali-gumonli, ishonsa ham, ishonmasa ham bo'laveradigan gap haqida «uzunquloq» gap yetkazgan, aytgan odamga nisbatan ham xalq «uzunquloq» nomini berib, salbiy munosabat bildiradi.

Qulog'ing qani desa, og'zini ko'rsatadi. Odatda go'dak bolalarga ilk bor bu og'iz, bu burun, bu ko'z, bunisi quloq deb ko'rsatib o'rgatishadi. Bola hali so'zni aytolmasada - onaning ishorasi-yu savoli bilan so'ralgan a'zoni ushlab ko'rsatadi. Ba'zan yanglishib, qulog'ing qani desa, og'zini ko'rsatadi. Bu iboraning birinchi ma'nosi. Mana shu hazilomuz holat bayonidir. Ikkinchi ko'chma ma'nosi esa uquvsiz, epaqasiz, bilimsiz, tajribasiz, saviyasi past odamga nisbatan qo'llaniladi. Sodda, epaqasiz va ma'lumot darajasi shu qadarki, «Og'zing qani desa, qulog'ini ko'rsatadi», deya xalq bunday odamlar ustidan kuladi, tanqid qiladi.

Burni ko'tarilgan. «Dimog'dor», «burni tanqayib qolgan», «dimog'idan qurt yog'iladi», «dimog'iga qurt kirib olgan» iboralarining muqobili. Takabburlik, manmanlik, o'ziga bino qo'yish tavsifi, bahosi. O'ta salbiy mazmun kasb etadi. O'z ma'nosida burunning ko'tarilishi kishi qomatini tik tutib, boshini baland ko'tarib, burunini yuqori havolantirishidir.

Burnidan narini ko'rolmaydi. Ko'chma ma'noda kaltafahmlik, oldinni, istiqbolni ko'rolmaslik. Saviya, dunyoqarashning pastligi. Salbiy ohangda.

Dimog'i chog'. Xursand, xushchaqchaq, ruhi, kayfiyati ko'tarinki, ishi yurishgan ma'nolarida. Ko'rishuv-so'rashuvda xalqimizda, dimog'ingiz (dimoqlar) chog'mi, degan savol iborasi ko'p qo'llaniladi. Dimog'ning chog'ligi o'z ma'nosida, gap, muomala, ish yaxshi, o'z normasida mazmunini tashiydi. Ko'chma ma'nosi yuqorida aytiladi. Muqobili: «Kayfiyati xush», «ishlari zo'r», «ishi besh» va hokazolar.

Burniga narvon yetmaydi. «Burni ko'tarilgan», «dimog'idan qurt yog'iladi» iboralari muqobili. Kattazanglik, oliftalik, takabburlik, asossiz havolanish belgisi. Go'yoki shu qadar burnini ko'targanki, har qanday narvon ham (ramziy ma'noda) yetmaydi, degan ma'no anglashiladi.

Og'zi katta. Birinchi ma'nosi og'izning tabiiy kattaligi (yuzning ko'p qismini egallaganligi). Asosan ko'chma ma'noda ishlatiladi. Og'zi katta, deganda xalq o'ylamay gapiradigan, takabbur, ko'tarma, hovliqma odamni ko'zda tutadi. Og'zi kattalar, deyilganda amali, vazifasi katta kishilar ham nazarda tutilishi mumkin. Mahalla-ko'yda og'zi katta odamni uncha xush ko'rishmaydi. Bu gapni kinoyaviy, istehzo tarzida ishlatiladi.

Og'zidagini oldirgan. Bu ibora og'zi ochiq birikmasiga mazmunan yaqin turadi. Bo'shligi, lapashang-lattaligi tufayli bor-budini, hatto og'zidagini ham oldirib o'tirgan sodda odam sifatida unga achinib fikr bildirish. Kambag'alni tuyaning ustida ham it qopibdi, biri ikki bo'lmagan, maqol iboralariga ma'nodosh.

Og'zining tanobi qochdi. «Og'zi qulog'iga yetdi» iborasining muqobili. Og'izning tanobi qochishiga sabab xushtorlik, o'zganing gapi yoqimli, xushomadli, kulgili bo'lishidandir. Andak salbiy ohangga ham ega. Har qanday gapga og'zingning tanobi qochavermasin, tanbeh jumlasini ham faol ishlatiladi.

Og'zingga moy. Balli, rahmat, baraka top, yashavor, og'zingga shakar, og'zingga bol iboralarining muqobili. Rag'batlantirish, rozilik, minnatdorlik, yoqtirganlik, ma'qul ko'rish, xayrihoxlik ifodasi.

Og'zi kuygan. Sutdan og'zi kuygan qatiqni ham puflab ichar, maqolining qisqa shakli. Asl ma'noda ham qaynoq ichimlikdan og'iz kuyishi mumkin. Ko'chma ma'noda bu masaladan jabr ko'rgan, ogohlantirilgan, tanbeh olgan, minba'd tavba qilgan mazmunlarida ishlatiladi.

Og'ziga siqqanini aytadi. Og'izni katta ochishning ayni muqobili. Katta so'rash, katta miqdorda pul, boylik talab qilish. Benihoya insofsizlik, surbetlik ko'rinishi.

Og'izga tushdi. O'zbeklar biror hofiz, polvon, suvoriy o'z qo'shig'i, kuch – quvvati, chapdast chavandozligi bilan elga tanilib, mashhur bo'lib ketganligini bildiradi. Og'izga tushish yaxshi, ezgu gap bilan, aksincha, yomon, kurakda turmas qiliq bilan ham bo'lishi mumkin. Og'izga tushgan odam, hayvon, voqea – hodisa, buyum, muassasa, tashkilot, jamoa va hokazolarda ma'lum bir muddat ko'pchilikning diqqatini jalb qiladi, keyin davr o'tishi bilan unutilib boradi. Muqobili: «Zamoni keldi», «dovrug'i ketdi», «nomi chiqdi», «davrini surdi», «mashhur bo'ldi» va hokazolar.

Og'zi oshga yetganda. Bu ibora afsus, nadomat, achinish, rahmdillik, hamdardlik ma'nolarini beradi. Bir shaxsning endi ishlari yurishib, mehnati evaziga tayyorlagan oshi, taomini yemakka o'tirganida biror kulfat, fojia, falokatning sodir bo'lishi. Mana shunday holatlarda aytiladigan ibora.

Og'ziga kuchi yetmagan. Ig'vogar, fisqu – fasodchi, og'zidan bodi kirib, shodi chiqadigan kishilarga nisbatan qo'llaniladi. Salbiy ohang, tanqid ifodasi kuchli.

Tish yormaydi. Indamaslik, sukut, sir boy bermaslik. Uydagi gapni ko'chaga chiqarmaslik. «Tish sinsa, og'iz ichida, bosh yorilsa, do'ppi ostida» aqidasi rioya qilish. Ya'ni o'z dard-hasratini o'zgalarga dasturxon qilib yoymaslik, izhor etmaslik. Tishini tishiga qo'yib, bosib turilsa, ora yorilmasa, ochilmasa, gapirilmagani, indalmagani, sukut saqlangani shu bo'ladi. Demak, tish yorilmaydi. Tish yordi – tish chiqa boshladi ma'nosida. Tish yormadi esa asl ma'noda – tish chiqmadi, tish o'smadi ifodasini beradi.

Tilli – jag’li. Odamlar bo’ladi-ki damdo’z, ichimdagini top, indamas, zerikarli. Yana bir toifasi unga qarama-qarshi o’laroq dalli-g’ulli, so’zamol, xushchaqchaq, qiziqarli, qunoq va hazilkash. Mazkur ibora aynan shunday toifadagi insonlarga nisbatan qo’llanadi.

Tilidan tutildi. Tilidan topdi, iborasining muqobili. Kishi gap orasida biror masalani xotiraga keltiradi-yu suhbatdoshining dashnomiga, tazyiqiga, buyrug’iga yo majburiyatiga duchor bo’ladi. So’ng tilini tiymagani, tishlamaganiga pushaymon bo’ladi. O’ziga o’zi ish, tashvish orttiradi.

Bo’yniga oldi. Muqobillari: «zimmasiga oldi», «gardaniga oldi», «yelkasiga oldi». «So’z berdi», «taslim bo’ldi», «tan berdi», «majbur bo’ldi», «tan berdi», «majbur bo’ldi» va hokazo. Bo’yniga olish biror to’y-tadbirda mas’uliyatli vazifalardan birini o’z zimmasiga olib, shu ishga kirishish. «Bo’yniga oldi»ning asosiy ko’chma ma’nosi qilgan aybi, gunohi, jinoyatini tan olish yoki shunga majbur bo’lish mazmunida. Ota o’z bolasini, aka ukasini to’g’ri ma’noda bo’yniga olishi, o’tqazishi mumkin. Bo’yniga olish o’z zimmasiga katta mas’uliyat yuklash ma’nosini ham beradi.

Bo’yin tovlamoq. Bo’yin tovlash – yo’q ishorasini qilish, bo’yinga olmaslik, bo’yinga yuk tushirmaslik. Bo’yin tovlash – bo’yinga olish, bo’yin berishning aksi bo’lib, muayyan ish-harakat, vazifa, mas’uliyatni tan olmaslik, zimmaga, gardaniga olmaslikdir. Bo’yin tovlamoq-bo’yni yo’g’onlikning muqobili bo’lib, qaysarlik, manmanlik, mas’uliyatsizlik, nomardlik, betovfiqlik sifatida qoralanadi. Bo’yni shamollab qotib qolgan odam uni oftobda toblashi, kunning tig’ida davolashi ham mumkin. «Bo’yin tovllovchi» kishiga nisbatan qilgan ishining mohiyatiga qarab ijobiy, salbiy baho berish mumkin.

Bo’yin egmoq. Ko’p ma’noli ibora. Bo’yin egish-ta’zim, hurmat-ehtirom, e’tibor, minnatdorlik ma’nolarida. Bo’yin egmoq-haqiqat oldida tan berish, dushmanga, raqibga taslim bo’lish, zo’r oldida ojizlik, qo’l ko’tarish, birovning quli, qaroli bo’lish. Bo’yin egib tahorat olish, kitob o’qish, tanovul qilish va hokazo mashg’ulotlar bilan shug’ullanish mumkin. Bo’yin egmoq sidqidildan, chin

istak bilan, majburan, zo'rlab, o'lganning kunidan, shunchaki diplomatiya ko'rinishlarida bo'ladi. Bo'yin eggan odam doim, hamisha ham taslim bo'lgan hisoblanavermaydi. Muqobili: «bo'ynini ham qilmoq».

Bo'ynidan soqit qilmoq. To'g'ri ma'noda bo'ynidagi yukni yerga tashlash, undan qutilish. Ko'chma ma'noda esa zimmaga olingan, olinishi kerak bo'lgan mas'uliyatdan xalos bo'lmoq. Bo'ynidan soqit qilmoqlik shaxsga qarab ham aniqlanadi. Siz o'zingiz o'z bo'yingizdan ma'lum «yuk»ni soqit qilishingiz yoki ikkinchi shaxs (do'stingiz, rahbar, boshliq) Sizning bo'yingizdagi o'sha yukni soqit qilib, yudingizni yengil, mushkulingizni oson qilishi mumkin.

Bo'yni qisiq. Tili qisiq, bo'yni xam, bo'ynini ichiga olgan (tortgan) iboralarining muqobili. Bo'yni qisqlik, qo'rqqqlik, qaramlik, o'z huquq-erkini qo'ldan berish, og'ziga cho'p o'lchatib olish, bo'ynidan ip o'tkazib olish bilan barobardir. Aslida ibora o'z ma'nosida itga qiyoslanib, bo'ynini, duminini qisgan qo'rqq, tekinxo'r hayvon kabi ma'nolar ko'zda tutilgan. Insonga nisbat ko'chirilganda bunday shaxsda insoniylik qo'ldan berilganligiga ishora qilinadi.

Xulosa shuki, tashqi ko'rinish bilan bog'liq gender stereotiplari aks etgan ko'plab iboralar erkaklar va ayollar nutqida ham teng qo'llanishi mumkin. Sababi ulardagi umumiy jihatlar har ikkala jins vakillariga xosdir. Shuningdek, tahlil davomida inson ta'na a'zolari nomi ishtirokidagi iboralar o'zbek frazeologizmlarida salmoqli o'ringa ega ekanligining guvohi bo'ldik.

3.3 Erkaklar va ayollar nutqida alohida qo'llanuvchi frazeologizmlar tahlili

O'zbek xalqining boy tarixiy merosi, go'zal qadryat va urf-odatlar hamda beqiyos ma'naviyatini o'zida aks ettirgan frazeologizmlarni tahlil etarkanmiz, ularning o'ziga xos xususiyatlarga egaligi, ayniqsa gender nuqtai nazaridan farqlanishiga guvoh bo'ldik. III bobimizning so'nggi qismida aynan erkaklar va ayollarga xos hamda ularning nutqida alohida qo'llanuvchi frazeologik birliklarning ayrimlarini tahlil qildik.

Erkaklar nutqida qo'llanuvchi iboralar:

Bosh omon bo'lsa-do'ppi topiladi. Do'ppi kiyish uchun boshning omon, bor bo'lishi shart. Ko'chma ma'nolari: tashvishlanma, jafo chekma, bu gal oldirgan, yutqazgan bo'lsang, keying gal omading chopib, olasan, yutasan. Sevgan ishingdan, boringki, jonajon ro'zg'oringdan ajralding, nadomat chekma, do'ppi topilib, ishli, ro'zg'or-oilali ham bo'lasan. Tavakkal, shahd ma'nolari ham bor. Muqobili: pul bo'lsa, changalda sho'rva, yigit boshi omon bo'lsa-do'ppi topiladi.

Boshini qashladi. Bosh qichisa, kishi uni qashlaydi. Ko'chma ma'nosida biror muammo oldida lol, ojiz qolganda kishi boshini qashlaydi. Talaba imtihonda, bola otaning haqli so'roqlari oldida bosh egib, yer chizib, boshlarini ko'tarolmay qolishadi. Muqobili: «yer chizib qoldi», «boshini ham qildi», «boshini egib qoldi».

Boshini ikkita qildi. O'z ma'nosi yo'q. Ko'chmasi: uylantirib, boshini ikkita, oyog'ini to'rtta qilmoq. Ola xurjunni (ro'zg'or) yelkaga tashlamoq. Xalqda ikki yoshni nikohlab, bir yostiqqa bosh qo'ydirishni «boshini ikkita qilish» iborasi bilan ta'riflanadi.

Boshiga baxt qushi qo'ndi. Ya'ni omadi keldi. Mashoyihlarning naql qilishlaricha, yigit kishining boshiga umri davomida uch marta baxt (davlat) qushi qo'nar ekan. Boshga qo'ngan baxt qushini tutib, undan foydalanib qolgan yigit asl,

bir umrlik turmush hamrohi, ketmas davlat, qobil farzandlaru, yuksak martabalarga molik bo'lar emish.

Bosh yorilsa, do'ppi ostida. Aybni, dardni o'zgalar ko'zidan nari tutish, bildirmaslik, sirini bermaslik. Bardosh, chidam, oqil-fozillik, uzoqni o'ylash, bosiqlik namunasi. Ibora kishining sabr-toqatli, chidamli, matonatli bo'lishga chaqiradi.

Ko'zi olma-kesak teradi. Odatda yosh bolalar g'arq pishib turgan bog' yonidan o'tayotganda bu ne'matlarga bee'tibor o'tib ketisholmaydi. Olmani ko'rgan ko'z daf'atan kesak, tosh, kaltak qidirib qoladi. Asl ma'nosi shunday olingan. Ko'chma ma'nosi-salbiy, tanqidiy ohangda bo'lib, odamga nisbatan ko'zi olma-kesak teradi, deganda behayo, besharm, ko'zi qattiq, atamalari mazmuni mujassam. Iborada ramziylik, olma deganda juvonlarga nisbat ma'nosi ham bor. Muqobili: «ko'zi boshi o'ynoqlagan», «ko'zi bejo», «ko'zida ajinasi bor», «sur», «tegajoq».

Qulog'ini tishlab qo'ygan. Beshik ketdi odati. Hali beshikdagi qizchaga 4-5 yashar bolani «yor» qilib, «holva»ning qulog'ini tishlatish. Bu odat turkiy o'zbek qavmlari orasida qadimdan mavjud. «Qulog'i tishlab qo'yilgan», deganda biror ish, masala, oldindan kelishib, hal qilib qo'yilgan, ma'nosi anglashiladi. Muqobili: «Ishni pishirib qo'ygan».

Burnidan ip o'tkazib olingan. Odatda buqa boqilganda, yaxshi semirtirish, birovni suzib olmasligi, ortiq erkin harakat qildirmaslik uchun burniga halqa solib, arqon bog'lab olishadi. Bu holatning ko'chma ma'nosi insonga nisbatan ham faol qo'llaniladi. Burnidan ip o'tkazib olingan odam ixtiyorini irodasizlik, subutsizlik bilan o'zga shaxsga topshirgan bo'ladi (xotini, onasi, ishdagi rahbari va hokazo), «Og'ziga cho'p o'lchatib olgan» iborasining muqobili.

Burnidan bo'lak nimasi bor? Bu ibora yigitlarga nisbatan qo'llaniladi. **Yigitning burni bo'lsa bo'lgani** degan ibora ham borki, unga qo'shimcha sifatida bu ibora yaratilgan. Yigitning ko'rki, chiroyi, go'zalligi shart emas, burni kelishgan bo'lsa, yuzning markaziy a'zosi sifatida qolgan a'zolar ham shunga

munosib bo'ladi qabilida ma'no tushuniladi. Burnidan bo'lak nimasi bor, deganda yigitning mol-mulki, boyligi, hunari bormi degan haqli savol anglashiladi.

Og'ziga cho'p o'lchatib olgan. Birovning gapi bilan ish ko'radigan, o'z mustaqil fikri bo'lmagan, irodasiz odamga nisbatan ishlatiladi. Go'yoki bu odam xotini, onasi, boshlig'iga o'z ixtiyorini shunchalik topshirib, tobe' bo'lib qolganki, hatto ikkinchi shaxs uning og'ziga cho'p o'lchab olib, og'zingni shu o'lchovdan katta ochmaysan, ya'ni mening gapimdan, chizgan chizig'imdanda chiqmaysan, deb qo'rqitib qo'ygan. Og'ziga cho'p o'lchatish, inson uchun to'tiga o'xshab birovning gapini takrorlab qolishdan iboratdir. Faqat salbiy ohangda qo'llaniladi.

Tishini g'ijirlatdi. Kishi bilmay tosh, sholi, kurmak, qum, ochilmagan moshni chaynab yuborsa, tishi g'ijirlab, asabi o'ynab ketishi mumkin. Uyqungizda tamshanib, kavshanib tishingizni g'ijirlatasiz. Tishni o'ngingizda, bila – ko'ra g'ichirlatishingiz ham kuzatiladi. Bu asabiylashish, g'azabga minish, jaholatning bosib kelishi holatlarida sodir bo'ladi. Bunday hollarda g'azabingizning zo'ridan raqibingizni g'ajib tashlagingiz keladi, beixtiyor tishingizni g'ijirlatasiz. Shu sababli odamning ushbu ko'rinishini turli mavjudotlarga yaqinlashtirib: itning irillashi, arslon – yo'lbarsning o'z o'ljasiga tashlanish oldidagi holatlarga o'xshatiladi.

Tishi gazillaydi. Og'riq tishga tegib ketsangiz, gazillab, joningizni oladi. Ko'chma ma'nosida biror nimaga, odam achinish, afsuslanish, biror voqea – hodisadan pushaymon bo'lish. Kishi bir paytlar qilgan, qilmagan, ulgurgan, ulgurmagan ishlariga pushaymon yeyishi, afsus – nadomat chekishi mumkin. Tishi gazillash – pushaymon bo'lishning o'ta – hissiyotli, oliy ko'rinishidir.

«Bo'y» deyish. Yigitlar (o'spirinlar) orasida shunday ibora mavjud. Birov asossiz ravishda biror nimaning da'vosini qilsa, uning tengdoshlari, shunaqami hali, «bo'y» deng bo'lmasa, deydi. Bu bilan, men oriyat, nomus, uyatdan mahrum odamman, «bo'y» deyishga tayyor nokasman, degan ma'no anglashiladi. Odatda, hech kim «bo'y» demaydi. Bu atamani bo'yniga olish, juvonmardlik, insoniylikdan voz kechib, tavqi la'natni bo'yniga olishdir. «Bo'y» deyish – kishini hayvon-

xo'kizga qiyoslash bo'lib, o'zgalar tomonidan, kishi shaxsi, o'zini o'zi hayvon qatoriga qo'shishdir.

Bo'yni yor bermaslik. Ma'lum ish-vazifa, masalaga jonim-otimlab, sidqidildan, xush ko'rib kirishmaslik. Xohish-istakning yo'qligi, xushyoqmaslik, tanballik. Bo'yni yor bermaslik obrazli, jonlantirilgan ibora bo'lib, bizningcha, aslida, bo'yni yor bermaslik (bo'ynidan «yuk» uchun joy, o'rin bermaslik) shakli va mazmunida bo'lgan. Yana bir taxmin bo'yni kor bermaslik shaklida bo'lgan bo'lishi ham mumkin.

Ayollarga xos va ayollar nutqida qo'llanuvchi iboralar:

Boshini boyladi. Ro'mol, mato bilan boshni boylash. Ko'chma ma'nosi: non sindirib, unashtirib qizning boshini (to'ygacha) boylab qo'yish.

Peshonamdan o'rgilay. Peshona ko'p o'rinda taqdir, omad ma'nolarida ishlatilib kelinadi. «Peshonamdan o'rgilay» iborasi xursandchilik, omad chopishi, toleining kulib boqishi, kutilmaganda katta yutuq, muvaffaqiyatga erishib qolinganda aytiladi. Aylanib-o'rgilish, mehr-muhabbat, sadoqat, muruvvat, o'zni bag'ishlov ifodalarini berib, «peshonadan o'rgilay» toleing kulib boqqanidan o'ta mamnunlik, xursandchilikni ifodalaydi. Ushbu ibora ayollarga xos emotsiallikni o'zida aks ettirgan.

Peshonam qursin. “Peshonamdan o'rgilay” iborasining aksi. Ya'ni taqdirdan, hayotdan nolish. Biror noxush vaziyat va ko'ngilsizlik sodir bo'lganda ayollar ko'p hollarda o'z holatlariga achinib, ushbu iborani qo'llashadi.

Og'zidan qoni kelsin. Qarg'ish niyat. Og'ir kasallik, bemorlik, daf'atan fojiaiy falokatni ravo ko'rish. Og'zidan qon kelishi o'lim ramzidir. «Juvonmard bo'lsin» qarg'ishi iboraning muqobili.

Tilini tishladi. Bu iboraning bir necha ma'nosi bor. Hayvonga nisbatan qo'llanilganda, qo'y, mol so'yilgan chog'ida, jon achchig'ida tilini tishlab jon beradi. Quyonchiq kasalligiga yo'liqqanlar dard xuruj qilganda tilini tishlab qolishi mumkin. Sog'lom insonga nisbatan «tilini tishladi» iborasi «tili qichidi» birikmasining ikkinchi bosqichi, bir olmaning ikkinchi pallasi sifatida ko'chma

ma'noda ishlatiladi. Tili qichidi-yu o'zini bosib, tilini tishladi, deymiz. Uchinchi ma'nosi muayyan hodisadan lol qolib, hayratlanib odam zoti «tilini tishlaydi». Yana biri - ilk ma'nosi odam tasodifan o'z tilini o'zi tishlab olishi mumkin.

Tili bir qarich. Tili uzun, tili bir quloq kabi iboralarning muqobili bo'lib, asosan salbiy ohangda ishlatiladi. Hech kimga gap bermaydigan, so'zamol, mahmadona odamga nisbatan bot-bot ishlatiladi. Ko'proq ayollar, kelin yo qaynonalarga, quda-andalarga, mahallaning xotin-qizlariga nisbatan qo'llaniladi.

Tilingga tirsak chiqqur. Qarg'ish iboralaridan biri bo'lib, tiling kesilgur, tiling tanglayingga yopishgur, birikmalari ma'nosiga yaqin turadi. Lug'aviy ma'nolari: aslida tildan tirsak o'sib chiqmaydi, yara chiqishi mumkin. Bu bilan «shu zahar tiling aylanmay qolsin», «tiling uzilsin», «o'z tiling o'z boshingga yetsin» kabi qarg'ish, yomon niyatli odamlarni, falonchi tilli-jag'li, odamni zeriktirmaydi, deyishadi.

Tishlab – tirnog'lab. Bu ibora tabiiy ko'rinishda, vafo ramzi itga nisbatan ishlatiladi. It bolalarini tishlab xavf – xatarsiz, qulay joyga keltiradi, tirnog'lab o'z oilasiga joy hozirlaydi. Mana shu ko'rinish ko'chma ma'noda odamga ko'chirilgan. Ona har qanday sharoitda ham o'z onalik qudrati bilan bolasini «tishida tishlab», oq yuvib, oq tarab, hayot zarbalaridan himoya qilib, parvarishlaydi, voyaga yetkazadi. Hatto zalvorli yukni tortadigan turmush hamrohisiz qolganda ham, iborada aytilganiday, tishlab-tirnog'lab, o'z zurriyatini balo – qazolaridan omon olib o'tadi. Shuning uchun ham xalq «otasiz yetim – gul yetim» degan naql ijod qilgan.

Keltirgan misollarimizdan ko'rinib turibdiki, erkaklar nutqida qo'llanuvchi iboralarda qattqlik, dag'allik, og'ir-bosiqlik, oriyat, kuch-qudrat kabi erkaklarga xos xarakter namoyon bo'ladi.

Ayollarda esa aksincha zaifalik, ojizlik, kuchli his-hayajonga berilish kabi gender stereotiplarini kuzatish mumkin.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, gender stereotiplaridagi ayrim tafovutlar vaqt o'tishi bilan o'zgarishi yoki umumiylik kasb etishi mumkin. Shu nuqtai nazardan frazeologizmlarni butunlay ma'lum bir guruhga taalluqli deb bo'lmaydi. Shiddat bilan odimlayotgan fan-texnika bu borada ham tadqiqotchilardan tinimsiz tadqiq va uning natijalarini kutadi.

Bob bo'yicha xulosalar

Biz mazkur “O'zbek frazeologizmlarining gender xususiyatlari” deb nomlangan III bob bo'yicha fikrlarimizni umumlashtirgan holda quyidagi xulosalarga keldik:

1. Frazeologik iboralar mahalliy dialekt va shevalarga tegishli bo'lishi, turli qarashlarni ifodalashi, kasb-hunarga va turmushning xilma-xil sohalariga doir bo'lishi mumkin. Bunday hollar frazeologik iboralarni stilistik nuqtai nazardan o'rganishga imkon beradi.
2. O'zbek xalqining o'ziga xos mentaliteti, tarixiy taraqqiyoti davrida erkaklar va ayollar munosabatining shakllanuviga doir bosib o'tilgan davriy bosqichlarning xilma-xilligi tilda genderga oid juda qiziqarli materiallar to'planishiga, ayollar va erkaklarning ham o'xshash, ham o'zaro izchil farqlanuvchi nutq odatining shakllanishiga olib keldi.
3. Tashqi ko'rinish bilan bog'liq gender stereotiplari aks etgan ko'plab iboralar erkaklar va ayollar nutqida ham teng qo'llanishi mumkin. Sababi ulardagi umumiy jihatlar har ikkala jins vakillariga xosdir.
4. Tahlil davomida aniq bo'ldiki, inson ta'na a'zolari nomi ishtirokidagi iboralar o'zbek frazeologizmlarida salmoqli o'ringa ega.
5. O'zbek xalqining boy tarixiy merosi, go'zal qadryat va urf-odatlari hamda beqiyos ma'naviyatini o'zida aks ettirgan frazeologizmlarni tahlil etarkanmiz, ularning o'ziga xos xususiyatlarga egaligi, ayniqsa gender nuqtai nazaridan farqlanishiga guvoh bo'ldik.
6. Erkaklar nutqida qo'llanuvchi iboralarda qattiqlik, dag'allik, og'ir-bosiqlik, oriyat, kuch-qudrat kabi erkaklarga xos xarakter namoyon bo'ladi.
7. Ayollarda esa aksincha zaifalik, ojizlik, kuchli his-hayajonga berilish kabi gender stereotiplarini kuzatish mumkin.
8. Gender stereotiplaridagi ayrim tafovutlar vaqt o'tishi bilan o'zgarishi yoki umumiylik kasb etishi mumkin. Shu nuqtai nazardan frazeologizmlarni butunlay ma'lum bir guruhga taalluqli deb bo'lmaydi.

Umumiy xulosalar

1. Shiddat bilan yangilanayotgan ilm-fan kundan kunga yangi izlanishlar qilishga chorlaydi. Shu jihatdan gender lingvistikasini o'rganish va chuqurroq tahlil qilish hozirgi davr tilshunosligining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.
2. Gender – tabiatan belgilanmagan, ijtimoiy hodisalar ato etgan xususiyatlar yig'indisidir. Gender – jinsning madaniy niqobi, bizning o'z ijtimoiy-madaniy tasavvurlarimiz doirasidagi jins haqidagi qarashlarimizdir. Buning ustiga jins, faqat gender demakdir, ya'ni uning ijtimoiylashtirilishi natijasida jinsni tashkil etgan narsadir. Jins insonga tegishli emas, balki inson jinsga oiddir, u esa hokimiyat va tilga ega.
3. Erkak va ayolning nutqi, dunyoqarashi, madaniyatidagi tafovutlarning tildagi ifodasi gender tilshunosligining muhim jihatlaridan biridir.
4. XX asrning 90-yillariga kelib dunyo tilshunosligida gender tilshunosligi borasida izlanishlar olib borish qizg'in tus oldi.
5. Tilshunoslikda gender masalalarini o'rganishda nutqiy faoliyatning barcha ko'rinishlari: yozma va og'zaki matnlar tadqiqot ob'yekti bo'lib xizmat qilishi mumkin. Dunyo tilshunosligida bu masalalarga bag'ishlangan ishlar anchagina. Til va gender muammosi tadqiqida diskursga alohida ahamiyat berilishiga sabab aynan so'zlashuvda ayollik va erkaklik belgilari bilan shartlangan ko'plab hodisalar, jumladan, nutqning ayol yoki erkaklarga xos xususiyatlari voqelanadi. Shu jihatdan diskursning gender xususiyatlarini ochib berish juda qiziqarli ma'lumotlarni beradi.
6. O'zbek tilida faqatgina ayollarga yoki erkaklarga xos bo'lgan so'zlashuvning gender xususiyatlari, ayrim xorijiy tillarda ikkala jins vakillariga ham xos bo'lishi mumkin.

7. Frazeologizmlardagi darajalanish, giponimiya, funktsionimiya, ierarxionimiya kabi semantik munosabatlar o'z tadqiqotlarini kutmoqda. Shuningdek, frazeologizmlarning gender xususiyatlarini chuqurroq tadqiq qilish ham tilshunoslar oldida turgan muhim vazifalardan biri sanaladi.
8. O'zbek xalqiga xos iboralar hozirgi o'zbek tilida ham ishlatiladigan iboralar, hozirda biroz o'zgargan holda ishlatiladigan iboralar, hozir ishlatilmasa ham, ma'nosi tushunarli bo'lgan iboralar, hozirda ishlatilmaydigan va ma'nosini ham tushunish qiyin bo'lgan iboralar kabi turlarga bo'linadi.
9. Frazeologizmlarda uchraydigan gender stereotiplarni uch turga ajratib, tahlil qilish maqsadga muvofiq:
 - 1) Erkaklarga xos gender stereotiplar.
 - 2) Ayollarga xos gender stereotiplar.
 - 3) Har ikki turga xos gender stereotiplar.
10. Erkaklar nutqida qo'llanuvchi iboralarda qattqlik, dag'allik, og'ir-bosqlik, oriyat, kuch-qudrat kabi erkaklarga xos xarakter namoyon bo'ladi.
11. Ayollarda esa aksincha zaifalik, ojizlik, kuchli his-hayajonga berilish kabi gender stereotiplarini kuzatish mumkin.
12. Gender stereotiplaridagi ayrim tafovutlar vaqt o'tishi bilan o'zgarishi yoki umumiylik kasb etishi mumkin. Shu nuqtai nazardan frazeologizmlarni butunlay ma'lum bir guruhga taalluqli deb bo'lmaydi.
13. Tashqi ko'rinish bilan bog'liq gender stereotiplari aks etgan ko'plab iboralar erkaklar va ayollar nutqida ham teng qo'llanishi mumkin.
14. Kelgusida frazeologizmlarning gender xususiyatlariga ko'ra tasniflangan izohli lug'at tuzish o'zbek tilshunoslari oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

Siyosiy adabiyotlar:

1. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Тошкент, 1997.
2. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008.
3. Каримов И.А. Асосий вазифамиз – Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. – 2009 йилнинг асосий якунлари ва 2010 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи, 2010 йил 30 январь.
4. Каримов И. А. Мамлакатимизни модернизация қилиш йўлини изчил давоми – тараққиётимизнинг муҳим омилидир // Ишонч, 2010, 8 декабрь.
5. Каримов И. А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқоролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010

Ilmiy adabiyotlar:

6. Abdukarimova N. “Shaytanat” asari tilining gender xususiyatlari. Magisterlik dissertatsiyasi. Toshkent, 2014.
7. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. – Тошкент: Фан, 1983.
8. Ahmedov B. “O’zbek tilida gender tadqiqi”. Magisterlik dissertatsiyasi. Andijon, 2012
9. Akbarova Z. O`zbek tilida murojaat shakllari va ularning lisoniy tadqiqi. Filol.fan.nom...diss. Toshkent, 2007.

10. Гендер муносабатлари назарияси ва амалиётга кириш. –Т. “Ўзбекистон”, 2007.
11. Гендер тадқиқоти асослари курси хрестоматияси. –Т. “Ўзбекистон”. 2003.
12. Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари. Фил.фанлари номз.дисс.автореферати. Самарқанд, 1993.
13. Nesfield J.C. English Grammar. London. 1916.
14. Nurmonov A. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari. –Т.: Akademnashr, 2011.
15. Нурмонов А. Б.Йўлдошев. Тилшунослик ва табиий фанлар. – Т. “Шарқ”, 2001.
16. Нурмонов А, Искандарова Ш Тилшунослик назарияси. – Т., “Фан”, 2008.
17. Нурмонов А, Йўлдошев Б. Тилшунослик ва табиий фанлар. – Т. “Шарқ”, 2001.
18. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978.
19. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. Тошкент, 1978.
20. Saidxonov M. Noverbal vositalar va o`zbek tilida ularning ifodalanishi. Filol.fan.nom...disser. Toshkent, 2004.
21. Йўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари. Самарқанд, 1999 йил

Rus tilidagi adabiyotlar:

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. Москва, «Советская энциклопедия», 1969.
2. Введение в гендерные исследования. Учебное пособие. МГУ, 2000.

3. Гальперин И. Текст как объект лингвистического исследования. – М.: Наука, 1981.
4. Гендер как интрига познания: Сб.статей. М., 2000.
5. Гендер: язык, культура, коммуникация // материалы третьей международной конференции. Москва, 2003.
6. Кирилина Л.В. Категория «гендер» в языкознании // Женщина в российском обществе. 1997.
7. Кирилина Л.В. Развитие гендерных исследований в лингвистике // филологические науки. 1998.
8. Комсов В.В. Язык города. – М., 1991
9. Шпет Г.Г. Герменевтика и ее проблемы...// Контекст. 1989, 1990, 1991, 1992. – М., 1989-92.
10. Э.Гидденс Социология. – Т. “Шарк”. 2002.

Internet resurslari va sahifalari ro`yxati:

1. <http://www.roman.by/r-54571.html>
2. <http://www.gender-cent.ryazan.ru/kirilina.htm>
3. <http://u-too.narod.ru/gender.htm>
4. <http://gender.at.ua/load/1-1-0-19>
5. http://www.gender.cawater-info.net/what_is/index.htm
6. <http://www.owl.ru/gender/010.htm>
7. http://www.terms_com_ua Словари_ Глоссарии_ Термины.htm
8. <http://www.transgender.ru/>
9. <http://www.yurov.com/gender.htm>
10. <http://www.gender-cent.ryazan.ru/bazhenova.htm>
11. <http://www.ziyonet.uz>